  - ta’lim oluvchilarning muammolarni ijodiy yechish va yaratuvchilik faoliyatlarini rivojlantirish vaziyatlarini tashkil etish;
  - ta’lim oluvchilarning kreativ faoliyat tajribasiga kasbiy zaruriyat va istiqboldagi kasbiy faoliyat mazmunining tarkibiy qismi sifatida yondashishlariga erishish;
  - ta’lim oluvchilarning kasbiy ko‘nikma va layoqatlarini

rivojlantirish jarayonini interfaol metodlar va texnologiyalar ustida ishlash asosida rivojlantirishga yo'naltirish, ularda mustaqil ijodiy faoliyat ko'rsatish, mustaqil bilim olish, o'z-o'zini tarbiyalash, o'zo'zini bilish, o'z mavqeyiga ega bo'lish, ta'lim oluvchilarining mustsqil ishlash layoqatlarini faollashtirish, bu jarayonda ularning kreativ fikrlashlariga erishish;

- ta'lim oluvchilarning kreativ layoqatlarini hamoyida qismanish uchun qulay ijodiy hamkorlik muhitini vujudga keltirish kabilar.

Ta'lim oluvchilarda kreativlik qobiliyatiarning rivojlanishida  
anvidanej ishl shakllaridan foydalaniш muhim ahamiyatga eга:

- ma'lumotlarni tahlil etish, tezkor qarotlar qabul qilish, ijodiy filialsh ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi treninglarni ishlash etish;
  - tajribavurlarni va obrazli qarashlarni shakllantirishga yo'naltirilgan ijodiy mashqlar, topshiriqlarni bajarish;
  - keyslar bilan ishlash;
  - guruhiy ish shakllari va debatlarni tashkil etish;
  - o'quv loyihalarini tayyorlash;
  - portfolio'larni shakllantirish;
  - kastinglar uyuştirish;
  - to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish va hokazo.

Ta'lim oluvchilardagi kreativlik qobiliyatlarining rivojlanganligi sharojasini aniqlashning quyidagi mezonlari mavjud: kreativ faoliyatga nisbatan motivatsiyaning qaror topganligi; kreativ fikriash bo'nikmalarining rivojlanganligi; kreativ sifatlarning shakllanganligi; analitik kreativ faoliyat jarayonini tashkil etish; ixtisoslashgan kreativlikning shakllanganligi va boshqalar. Kreativlikni ijodga solish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamон psixologiya va pedagogika lug'atlariiga asoslanib, o'qituvchining kreativligi deb, uning fikrlaridagi, sezgilaridagi, muloqotdagl, alohida faoliyat nejdagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'siflash mumkin. O'qituvchining kreativligi, bu uning qat'iy, chegaralangan yoki surʼe chegaralangan sharoitlarda har xil original g'oyalarni izlab topish imkoniyati. Umyi adabiyotlarni tahlil qilish quyidagi o'zaro birinchi bog'liq kreativlik tarkibiy komponentlarini ajratish imkon-

1. Intellektual (aqliy).
2. Axloqiy (o'z-o'zini boshqarish).
3. Motivatsion (maqsadli).
4. Emotsional (his-hayajonli).

Kreativ layoqat quyidagi o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan qismlardan iborat bo'ladi:

1. Kreativ maqsad.
2. Ijodiy intilish.
3. Kreativ (ustanovka) qurish.
4. Kreativ yo'nalish.
5. Kreativ ifodali akt.
6. Kreativ o'z-o'zini boshqarish.
7. Kreativ faollik.
8. Kreativ intilishlar darajasi.

O'qituvchining kreativligi uning ijodiy faoliyatida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Kreativlik o'qituvchining ijodiy faoliyatida ijodiy intilishi, ijodiy qobiliyati, kreativ maqsadi, yo'nalishi va o'zini boshqara olishida ko'rindi va uni o'zining faolligi, o'zini-o'zi boshqara olishi bilan yetuk rivojlanayotgan, o'sayotgan shaxsiga aylanayotganini bildiradi. Pedagogning kreativ kompetentligi uning umumiyligini xususiyati sifatida aks etadi. U kreativ faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi.

Kompetentlikka yo'naltirilgan ta'lim amerikalik tilshunos N. Xomskiy (1965-yil, Massachutes universiteti) tomonidan taklif etilgan "kompetensiya" atamasining umumiyligini ma'nosida shakllandi. Yevropa Kengashi dasturi bo'yicha Bern shahrida bo'lib o'tgan simpoziumda (1996-yil) "kompetensiya" tushunchasi "uquv", "kompetentlik", "qobiliyat", "mahorat" singari tushunchalar qatoriga kiritilgan. Yevropa davlatlarining ta'lim vazirlari Boloniya deklaratsiyasida (1999-yil) ta'lim islohotlarining konseptual asoslar sifatida kompetentli yondashuv e'tirof etildi. G.V. Nikitinaning fikricha, kompetentliklar tasnifida bir nechta asoslar mayjud:

- insonnинг umumiyligini (matematik, kommunikativ, informatsion, ijtimoiy, axloqiy va h.z.);
- faoliyat turlari bo'yicha kompetentlik (mehnat, o'quv, o'yin, kasbiy va boshqalar);

- faoliyat yo'naligan obyektlar bo'yicha kompetentlik (inson-siz, inson-texnika, inson-tabiat, inson-badiiy timsol va h.z.);
- ijtimoiy hayot sohalari bo'yicha kompetentlik (maishiy, fugaroviy, madaniy va boshqalar);
- ijtimoiy bilimlar tarmoqlari bo'yicha kompetentlik (matematika, gumanitar fanlarda); - ishlab chiqarish tarmoqlari bo'yicha kompetentlik (transport, aloqa, mudofaa va boshqalar);
- qobiliyatlar bo'yicha kompetentlik (pedagogika, psixologiya, ijtimoiy, ijodiy, texnik va boshqalar).

Zero, yuqorida aytilgan kompetentlik yo'nalishlari shaxs umummadaniy kompetentligining tarkibiy qismlari hisoblanadi. Pedagogning kasbiy kompetentligi tasnifi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- pedagogning ish sohasi bo'yicha kompetentligi
- uzuksiz ta'lim tizimini o'z ichiga oladi;
- ixtisoslik bo'yicha kompetentligi
- o'qituvchi, tarbiyachi, psixolog, defektolog, kasb ta'limi o'qituvchisi, ishlab chiqarish ustasi;
- pedagogning faoliyati yo'naligan obyekt bo'yicha kompetentligi
- talabalar, otaonalar, sinf jamoasi, sotsium va boshqalar;
- pedagogning faoliyati turi bo'yicha kompetentligi motivatsion, psixistik, metodologik, metodik, informatsion, kommunikativ, qo'llekativ, prognostik, konstruktiv, tadqiqot, texnologik, korreksion va boshqular.

A.V. Xutorskiy o'qituvchining quyidagi kompetensiyalarini tasviflaydi:

1. Dunyoqarash asosida; ya'ni qadriyat va o'zini anglash – o'qituvchining dunyoqarashi, tasavvuri va qadriyati bilan bog'liq rassabda namoyon bo'ladi. U atrof-muhitdagi voqealarni hodisalarining muddiyatini ko'ra oladi va tushunadi, bunga o'zini yo'naltiradi, pedagog sifatida o'z fikrini usoslay oladi. Muammo yechimini topa oladi. Bu kompetensiya o'qituvchining o'quv va boshqa faoliyatlardagi o'z-o'zini anglash mexanizmini ta'minlaydi.

2. Umummadaniy – milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ega bo'lish; mamlakatning ijtimoiy hayotida ishfirok etish; oиласига, урғаннинг бармат; ijtimoiy ko'nimalarga ega bo'lish. Ilm-fanning imoni hayotiga va dunyo rivojiga ta'sirini anglay olish va talaba

yoshlarga tushuntira olish.

3. O'quv va bilish jarayoni – o'qituvchining mustaqil bilish faoliyati. Mantiqiy fikrlashi, o'quv-biluv faoliyatini baholashi, bilim va ko'nikmalarini tahlil qila olishi.

4. Ma'lumotga ega bo'lism – pedagogik faoliyat va o'z faniga doir ma'lumotlarni egallash ko'nikmasi.

5. Muloqotchanlik – til bilishi, turli xil insonlar bilan muloqotda bo'lismi, jamoada o'ziga xos o'rinda turishi.

6. Ijtimoiy – foydali mehnat, oilaviy munosabatlar va mas'uliyat, jamiyat rivojidagi ishtiroki, ijtimoiy foydali mehnat qilishi. Iqtisodiy va huquqiy ko'nikmalarga ega bo'lism.

7. O'z ustida ishlashi – jismoniy, ma'naviy, intellektual jihatdan o'z-turli axborot manbalari, shu jumladan, ta'lim muassasasidan tashqaridagi axborot manbalaridan bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga asoslangan bilish faoliyati sohasidagi kompetensiyalar:

– ijtimoiy faoliyat sohasidagi kompetensiyalar (fuqaro, saylovchi, ijtimoiy guruh, jamoa a'zosi rolini bajarish);

– mehnat faoliyati sohasidagi kompetensiyalar (shu jumladan, mehnat bozoridagi holatni tahlil etish va undan foydalanish, o'zining kasbiy imkoniyatlarini, o'zini o'zi uyushtirish ko'nikmalarini baholash va takomillashtirish);

– maishiy sohadagi kompetensiyalar (shu jumladan, oilaviy hayot aspektlarini, salomatlikni saqlash va mustahkamlashni ham qamrab oladi);

– madaniy faoliyat sohasidagi kompetensiyalar (shu jumladan, shaxsning ma'naviy va madaniy jihatdan boyishi uchun vaqtдан unumli foydalanish).

O'qituvchi kompetensiyasi – uning nazariy va amaliy bilim, ko'nikma va malakasi, dunyoqarashi, e'tiqodi va barcha shaxsiy individual, ijtimoiy-psixologik sifatlarining namoyon bo'lismidir. Ta'limning sifat va samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri bu – o'qituvchining o'z fani bo'yicha kompetensiyaga ega bo'lismidir. U pedagogik moslashuv tizimi asosida namoyon bo'ladi. Bular:

ilmiy bilish; gnoseologik bilish;

pedagogik faoliyatni epchillik, omilkorlik, mohirlilik bilan bajara olish;

har qanday muammoli vaziyatlarning samarali yechimini topishga ijodiy kreativ yondashish;

ta'limiy, tarbiyaviy ta'sir jarayonida yuksak ijtimoiy psixologik xususiyatlarni namoyon etish;

o'zining intellektual, kognitiv, emotiv, axloqiy salohiyatini, o'rganish va ichki psixologik zaxirasidan samarali foydalanish orqali o'zini muttasil rivojlantirish;

jamiyat va insonlarga, tabiatga, borliqqa ijobiy emotsiyonal munosabatda bo'lismi ijobiy pozitiv fikrlashga o'tish tajribasidan doarat.

Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:

o'z bilimlarini izchil boyitib boradi;

yangi axborotlarni o'zlashtiradi;

davri tababbrarini chuqur anglaydi;

yangi bilimlarni izlab topadi;

ularni qayta ishlaysdi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi.

Pedagoglarda kreativ faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan malakalar puruhilar:

1) bilishga oid (gnostik) malakalar;

2) toyiblash malakalar;

3) qodly-seminar (konstruktiv) malakalar;

4) radiqotchilik malakalar;

5) muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ) malakalar;

6) mohit ilotchilik malakalar;

7) yashillikni ta'minlovchi (protsessual) malakalar;

8) texnik texnologik malakalar.

Ijodiy kompetentlik – pedagogik faoliyaiga nisbatan tanqidiy ipodiy yondoshish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish.

Kreativlik uchun quyidagilar muhim bo'lib hisoblanadi: pedagogik mazsalarning ko'p xilligi va ularni hal etishning variativligini ushlashish, o'z mahoratining darajasi va tavsifini hamda uni rivojlantirish mumkinligini tushunish, uni takomillashtirish xohishi, unga yechimlar zarurligini tushunishi va unga psixik tayyorgarlik hamda uni amalga oshirishga ishonch. Kreativlik shaxsni yaxlit hujjati yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik ispidorining muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolayersa,

kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi, "talabalar e'tiborini ta'lim jarayoniga faol jalb etishni ta'minlaydi".

Xorijiy mamlakatlarda barcha sohalarning mutaxassislari kabi o'qituvchilar ham o'zlarida kreativlik sifatlari mavjudligi va uning darajasini aniqlab boradi. Buning uchun ular E.P. Torrens tomonidan 1987-yilda asoslangan va shaxsnинг kreativ tafakkurga egaligini aniqlovchi testdan o'tadi. Mazkur test shaxs kreativligi va uning darajasini ijodiy faoliyatni tashkil etishdagi faoliik, tezkor fikrlash, o'ziga xos (original)lik va takomillashganlik kabi mezonlar bo'yicha baholash imkoniyatini yaratadi. Talaba tomonidan tavsiya etilgan savollarga beriladigan javoblar aynan mana shu to'rtta mezonni qanoatlantirishi lozim.

E.P.Torrens fikricha, "kreativlik" tushunchasi negizida quyidagilar yoritildi:

- muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;
- farazni tekshirish va o'zgartirish;
- qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;
- muammo yechimini topishda bilim va seminar harakatlarning o'zaro qaramaqshiliga nisbatan ta'sirchanlik.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, talabalarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish mazmunini DTS talablari asosida tahlil etilib, bitiruv ishi doirasidagi "kreativlik", "kreativ qobiliyat", "pedagogik kreativlik", "interfaol o'qitish", "interfaol o'qitish sharoiti", "talabalarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish" kabi asosiy tushunchalar mohiyati ochib berildi.

#### Nazorat savollari:

1. Kreativlikning mohiyati nima?
2. Kreativlik atamasi qachon paydo bo'lgan?
3. J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qanday individual qobiliyatlarni ko'rsatadi?
4. A.X. Maslou kreativlikni qanday turga bo'ladi?
5. Dj.P.Gilforda, E.P.Torrans tomonidan kreativlikning qanday mezonlari belgilangan?
6. Tafakkurning egiluvchanligi nima?
7. Ta'lim oluvchilarda kreativlikni rivojlantirish ta'lim mazmunini o'zlashtirishda qanday pedagogik shart-sharexitir?

anod qiteshi lozimligi nazarda tutiladi?

8. Tadqiqotchi G.Ibragimova interfaol o'qitish jarayonida ta'lim oluvchilarda kreativlikning rivojlantirish bosqichlarini qanday hisoblapa?

9. Ta'lim oluvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi qanday omillari mavjud?

10. Ta'lim oluvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda quolay ishlashidan foydalanan muhim ahamiyatga ega?

11. Ta'lim oluvchilardagi kreativlik qibiliyatlarning rivojlanganlik darajasini aniqlashning qanday mezonlari mavjud?

12. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish qanday kreativlik tarkibiy komponentlarini ajratish imkonи beradi?

13. Kreativ layoqat qanday o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan o'rnatishdan iborat bo'ladi?

## **18-MODUL. MAXSUS TESTLAR VA TOPSHIRIQLAR YORDAMIDA PEDAGOGLARNING KREATIVLIK SIFATLARIIGA EGALIKLARININ ANIQLASH**

### **18.1-§. “To’ldirilgan hikoya” testi yordamida pedagogning kreativlik sifatlariga egaligini o’rganish**

#### **“To’ldirilgan hikoya” testi**

Test har biri 8 ta rasmdan iborat ikkita to’plam asosida tashkil etiladi. Hikoyaning qahramoni – Ferdinand nomli shaxs. Testning maqsadi ta’lim oluvchilarning Ferdinandning odatiy kundalik hayotida ro’y bergen ikki hodisalarning mohiyatini qanchalik to’g’ri anglay olishlarini aniqlashdan iborat.

Ferdinand oilali, uning rafiqasi va o’g’li bor. U korxonalardan birida rahbar bo’lib ishlaydi. Shu sababli ikkinchi hikoyada uning qo’sti ishlaydigan xodimlari ham ishtirot etadi.

Har ikki to’plam testlarida birinchı qatorda joylashgan to’rtta rasm orqali Ferdinandning hayotida ro’y bergen voqealarning izchilligi aks ettirilgan. Biroq, bu qatorda bitta rasm tushirib qoldirilgan. Sizlar ikkinchi qatorda berilgan yana to’rtta rasm orasidan birinchı qatorдан tushirib qoldirilgan rasmni joyiga qo’yish talab etiladi. Tegishli rasm o’z joyiga qo’yligach, Ferdinand bilan bog’liq voqeanning mazmuni to’la anglanadi.

Tinglovchilarning xatti-harakatlari ikki holatni yuzaga keltiradi:

1) bordi-yu, tegishli rasm to’g’ri topilsa, personajlarning his tuyg’ularini to’g’ri anglanadi va Ferdinandning hayotida ro’y bergen voqeanning mazmuni ham to’g’ri tushuniladi;

2) agarda tegishli bo’lidan rasm bo’sh katakkka qo’yilsa, u holda voqeanning izchilligi ta’minlanmaydi.

Demak, e’tiboringizga havola etilayotgan rasmlarni diqqat bilan ko’zdan kechiring va bo’sh kataknini tegishli rasm bilan to’ldiring!

Har bir test bilan ishlasingiz uchun Sizlarga 10 daqiqa vaqt beriladi. Reglament tugashiga bir daqiqa qolganda Sizlarni ogohlantiramiz. Topshiriqnı imkon qadar tez bajarishga harakat qiling. Bir topshiriq uchun ko’p vaqt ajratmang. Garchi javobni noto’g’ri deb hisoblasangiz-da, uni bayon eting!

### **18.2-§. Pedagogik kreativlikni rivojlantirishga doir topshiriqlarni bajarish**

#### **1. Ob’ektni shakllantirishga oid topshiriq**

Faduy faoliyatizingizga taalluqli, biroq, bir-biri bilan mutlaqo bo’lidan bo’lidan ixтиiyor 3-4 ta predmetni oling. Ular asosida imkon qadar ko’proq “hodisa”lar haqida hikoya (xabar) qiling. Hikoya (xabar)ingiz imkon qadar badiiylik kasb etsin!

**Misol uchun:** devor, velosiped, osmon.

**Hodisa:** “Bola uy yo’lagining devoriga suyab qo’yilgan velosipedni yetaklab, deraza oldiga keldi va osmonga qaradi” (jumlada bo’lidan hodisa shunchaki xabar). Hodisaning mohiyati ijodiy surʼati kabi etishi uchun badiiy ibora va o’xshatishlardan foyalanish kerak.

#### **2. Ob’ektlarning umumiy belgilarni topishga oid topshiriq**

Faduy faoliyatizingizga taalluqli, biroq, bir-biri bilan mutlaqo bo’lidan bo’lidan yoki mutlaqo bog’lanmagan 2 ta ob’ektni oling. Ijodiy jadval asosida ularga taalluqli o’zaro o’xshash jihat bo’lidan topishga harakat qiling. O’xshash jihat (belgi)larni ot bo’lidan oda (fodalang). O’zaro o’xshash o’xshash jihat (belgi)larning imkon qdar ko’proq bo’lishiga harakat qiling.

**Nomruva**

Birbiroviy tadbir	Sayebat

#### **3. Ob’ektning muqobilari yoki unga zid bo’lgan ob’ektlarning topishiga oid topshiriq**

Faduy faoliyatizingizga taalluqli bir ob’ektni oling. Ikki ustunli ob’ektni halallantiring. Birinchı ustunga muqobili, ikkinchi ustunga ziddi ob’ektni bo’lidan ob’ektni qayd eting. Ularning xususiyatlarini o’raloq chitring.

**Nomruva**

Vertolyot	Olav

## **2. E.P.Torrensning “Tugallanmagan rasmlar” testi bo‘yicha ishlash.**

Amerikalik psixolog E.P.Torrens tomonidan asoslangan “Tugallanmagan rasmlar” testi yuzasidan ishlashiga oid topshiriq.

Tinglovchilarning e’tiborlariga E.P.Torrensning “Tugallanmagan rasmlar” testi havola etiladi va berilgan shtrixlarga tayangan holda to’laqonli rasm (surat)ni ishlash topshirig’i beriladi.

## **3. Devid Lyuisning bolalarda kreativlikni rivojlantirishga oid ko‘rsatmalari bilan tanishish va u yuzasidan muhokama tashkil etish.**

Tinglovchilarning e’tiborlariga Devid Lyuisning bolalarda kreativlikni rivojlantirishga oid ko‘rsatmalari havola etiladi va u bilan batafsil tanishib chiqish tavsiya etiladi. Ko‘rsatmalar bilan tanishibgach, jamoada muhokama tashkil etiladi.

### **Muhokama uchun savollar:**

1. Devid Lyuis ko‘rsatmalariningahamiyatini Siz qanday baholaysiz?
2. Shaxsiy hayotingizda ko‘rsatmalardan qaysilariga rioya etasiz?
3. Shaxsiy hayotingizda ko‘rsatmalardan qaysilariga e’tibor qaratmagansiz?
4. Ko‘rsatmalar bilan tanishish asosida shaxsan Siz qanday xulosalarga keldingiz.
5. Sizningcha, ko‘rsatmalardan eng ahamiyatlisi qaysi?

### **Devid Lyuisning bolalarda kreativlikni rivojlantirishga oid ko‘rsatmalari**

1. Bolalarning savollariga chidam bilan to’g’ri javob bering.
2. Ularning savollari va fikrlarini jiddiy qabul qiling.
3. Bolalarga o‘z ishlari bilan shug‘ullanishlari uchun alohida xona yoki burchak ajrating.
4. Agarda ijodiy jarayon bilan bog‘liq bo‘lsa, u holda bolani xonadagi tartibsizlik uchun koyimang.
5. Vaqti-vaqti bilan bolalarga ularni yaxshi ko‘rishingizni va ularni qanday bo‘lsalar, shunday qabul qilishlarini namoyon eting.
6. Bolalarga imkoniyatlariga mos yumushlarni buyuring.
7. Ularga shaxsiy rejalarini ishlab chiqish va qarorlar qabul qilishga ko‘makflashing.

II. Bolalarga faoliyatlarda yuqori natijalarga erishishlariga yordam bering.

9. Kamchiliklarini ko‘rsatgan holda bolani boshqalar bilan odatlantirishing.

10. Bolani kamshitmgan va o‘zini yomon, ojiz deb hisoblashishiga yo‘l qo‘ymang.

11. Uni mustaqil fikrlashga o‘rgating.

12. Bolani sevimli mashg‘ulotini tashkil etishi uchun zarur boyumlar bilan qirollantiring.

13. Uni turli voqealarni o‘ylab topishga, fantaziya qilishga o‘sib borishing, bu jarayonda unga yordamlashing.

14. Bolani yoshlikdan o‘qib-o‘rganishga odatlantiring.

15. Doimoi bolaning ehtiyojlariga e’tibor qarating.

16. Har kuni bola bilan yuzma-yuz suhbatlashish uchun vaqt toping.

17. Olaga oid masalaarning muhokamasiga bolalarni ham jalg toping.

18. Xatolari uchun bolani masxara qilmang.

19. Bolani har bir yutug‘i uchun maqtang.

20. Uning yutuqlarini maqtashda samimiy bo‘ling.

21. Bolani turli yoshdagi kishilar bilan muloqot qilishga o‘rgatib toping.

22. Uning borliqni anglashiga yordam beradigan amaliy capdedacci o‘ylab toping.

23. Bolaga turli latta-puttalar bilan o‘ynashni taqiqlamang – bu uning issavvurini boyitadi.

24. Uni muammoni topish va uni hal qilishga rag‘batlantiring.

25. Bolaga nisbatan o‘z munosabatingizni baholashda odil toping.

26. O‘bilan muhokama qilinadigan mavzularni cheklamang.

27. Bolaga qarorlarni mustaqil qabul qilish va uning uchun o‘sib bo‘lishi imkonini bering.

28. Bolaga uning shaxs bo‘lib shakllanishi uchun yordam bering.

29. Bolaga uning uchun soydali bo‘lgan teleko‘rsatuvlarni o‘sib bo‘lib hiva radio eshitirishlarni tinglashi uchun ko‘makflassing.

30. Uni o‘z qobiliyatlarini ijobiy qabul qilishga odatlantirib toping.

31. Bolani kattalardan mustaqil bo'lishga o'rgatib boring.
32. Bolaning o'ziga va uning sog'lom fikrga egafigiga ishoning.
33. Bolaga "Men ham buni bilmayman" deb, uni muvaffaqiyatsizliklarga bec'tibor bo'lishga o'rgatmang.
34. Bolaga, garchi u ishning ijobiy natijaga ega bo'lishiga shonmasa-da, boshlangan ishni oxiriga yetkazishi uchun imkoniyat yaratting.
35. Kundalik daftar yuriting va unga bolada kreativ qobiliyat shakllanishini qayd etib boring.

### **Mashg'ulotning yakuni**

Tinglovchilarning faoliyati umumiy tarzda tahlil qilinadi. Imkon qadar har birining faoliyatiga baho beriladi. Mashg'ulot yakunlanadi.

### **Nazorat savollari:**

1. "To'ldirilgan hikoya" testi nima?
2. Pedagogik kreativlikni rivojlantirishga doir qanday topshiriqlarni bilasiz?
3. Ob'ektni shakllantirishga oid topshiriq nima?
4. Ob'ektlarning umumiy belgilarini topishga oid topshiriq nima?
5. Ob'ektning muqobillari yoki unga zid bo'lgan ob'ektlarni topishga oid topshiriq nima?
6. E.P.Torrensning "Tugallanmagan rasmlar" testi bo'yicha ishlashni tushuntirib bering.
7. Devid Lyuisning bolalarda kreativlikni rivojlantirishga oid ko'satmalari bilan tanishish va u yuzasidan muhokama tashkil etishni tushuntirib bering.

## **19-MODUL. PROFESSOIGRAMMA - KASB TAVSIFNOMASI SIFATIDA**

### **19.1-§. Professiografiyaning mohiyati**

Professiografiyada ma'lum mehnat jarayonini tashkil etuvchi do'eklar belgilari, mehnat sub'ekti, mehnat predmeti vazifalari, vazifalari va sharoitlari o'rganiladi.

Professiografiyaning asosiy tamoyillaridan biri kasbiy faoliyatni o'rnatishda differentsial yondashuv tamoyili hisoblanadi. Bu tamoyilning mohiyati professiofaifiyaning aniq amaliy masalalarini yechishga bo'y sunishidir. Masalan, kasbiy konsultatsiya va kasbiy tanlov uchun shunday kasbiy muhim belgilarni ajratish kerakki, ular sinovdagilarning kasbiy layoqatiga ko'ra farqlanishi lozim. Malaka surʼajasini aniqlash uchun mehnat vazifalari, kasbiy bilim, malaka, ko'nikma tavsifi muhim ahamiyatga ega. Kasbiy toliqishni o'rGANISH olib oson shunday belgilardan foydalanildiki, ular yordamida kasbiy toliqishning keltirib chiqaradigan omillarini aniqlaydi.

Shunday qilib, professiografiyaning differentsial tamoyili kasbiyning o'rGANISH usullarini uning tavsif, mazmuni, shuningdek, qo'shatish sohaasi ya'ni professiografiya o'tkazish xususiyatlari ning maqsadlari bilan belgilanadi. Maqsadlari quyidagi faoliyat shaharlar tomon boglangan bulishi mumkin:

- (1) Ishchilar attestatsiyasi.
- (2) Yangi kasblar mutaxassisliklarni loyihalashtirish.
- (3) Optonlar profkonsultatsiyasi va mutaxassislar tanlovi.
- (4) Kasbiy ta'llim malaka tayyorligi va malaka oshirishni idomotlalashtirish.
- (5) Tashxus kasbiy rivojlanishi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar.

Profilografiya natijalari professiogrammada aks etadi, u mehnat sohasi, ishchi huquq va majburiyatlar, muhim kasbiy maʼbari, shuningdek, sog'ligiga qarshi ko'satmalarni o'z ichiga oladi.

Profilogrammaning muhim tarkibiy qismi - psixogramma. Psixogramma motivatsiyasining motivatsion, iroda va emotsiunal sohasining oʻsidi hisoblanadi.

Psixogramma - kasbning psixologik portreti bo'lib, u aniq kasbda dolzarb bo'lgan psixologik funktsiyalar guruhi bilan namoyon buladi.

### 19.2-§. Professiografik tadqiqot metodlari

Kasbning ilmiy ta'siri, mehnatning (mehnat xulqi) tashqi ya'ni psixik jarayonlar qurishini ya'ni, mehnat sub'ekting ichki vositalariga bo'lgan integral psixologik tuzilmalarini nazarda tutadi.

Professiografiyada turli-tuman usullar qo'llanadi:

- 1) Ijtimoiy (so'rovnomalar, savollar kiritilgan kuzatuv);
- 2) Psixologik (suhbat kuzatuv tajriba va ulardan kelib chiquvchi intervyu, shaxsiy so'rovnomalar testlar, tajribalar, psixobiografiyalar, faoliyat maxsulini o'rganish metodi);
- 3) Fiziologik (EKG, KER konda arterial bosimni o'lchash antopometrik va texnik ma'lumotlar);
- 4) Texnologik jarayonlar ta'siri va boshqa usullar xilma - xilligidan vaqt, kuch va vaziyatlarni minimalligi bilan professiogramma tadqiqotdagi savollarga javob beruvchi usullarni tanlash lozim.

Usullar kompleksini ishlab chiqishda tizimni tashkil etuvchi omil tadqiqot maqsadi muhim rol o'ynaydi.

Psixografiyalarni kasbga yo'naltirish uchun ishlab chiqayotganda kasbning umumiyligi professiografik va ijtimoiy-psixologik ta'siriga katta e'tibor beriladi. Mehnat sharoitlaridan texnik, texnologik va ijtimoiy psixologik sharoitlari ancha chuqurroq o'rganiladi. Tadqiqotlarning muhim yo'nalishi bu shaxsnинг qobiliyatlari, psixofiziologik xususiyatlarini baholashdir.

Professiogrammalarning kasbga yo'naltirish va kasbiy tanlov maqsadida ishlab chiqishda psixodiagnostik tadqiqotlar juda muhim hisoblanadi. Qolgan tadqiqotlar o'quv - kasb muassasalarida talabalar, o'quvchilarni o'qishga qabul qilinadigan shaxslar ishlashi lozim bo'lgan sharoitlarni aniqlash uchun ahamiyatga ega. Ammo ular ham muhim hisoblanadi, chunki aniq majburiyatlarni va mehnat sharoitlarini bilmasdan, kasbga yo'naltirish, kasbiy yo'nalganligini tashkillashtirish va kasbga nisbatan layoqatini aniqlab bo'lmaydi.

Professiografik tadqiqotlarning keyingi yo'nalishi - toliqish monotoniya boshqa yomon holatlarni oldini olish, travmatizm bilan

ko'zning qurish kasalligi va uning pasayishi maqsadida mehnat sharoitlari va tartibini o'rganishdir. Tadqiqotlarning asosiy maqsadi - melumat sharoitlar va tartibini o'rganishi va shu bilan birga normal va patologik holatlar, shuningdek, shaxsnинг kasbiy muhim va faoliyatiga bo'lgan reaktsiyasini tashxis qiladi. Bu kompleksga professiografik usullardan gigienik, tabiiy, psixologik va fiziologik usullar kiradi.

Usullarni tanlashda kasbning to'liq o'rganilishi nazarda tutilishi kerak. Bunda professiografik tadqiqotlar yo'nalishlarida quyidagi professiografiya chizmasidan foydalanish tavsiya etiladi:

- 1) Ishlab chiqarish jarayoni bilan umumiy tanishuv uning o'rganish va tasviri;
- 2) Ish o'rinnarini tasvirlash, ish o'rnidagilarning faoliyatini psixologik qo'llash;
- 3) Ish-harakatlarining psixologik, fiziologik va antropometrik tahlili:
  - 1) Mehnat jarayonining tahlili;
  - 2) Ish kunining sur'ati xronometraj;
  - 3) Faoliyatning individualigini o'rganish;
  - 4) Xatoli harakatlar tahlili;
  - 5) Sanitariya - gigienik mehnat sharoitlarini baholash;
  - 6) Bir smena, hafta, uzoq davr manbaida ish qobiliyatini dinamoitlawa;

Prosessiografiyalar turli mazmuniga ega. Bu ular nima maqsadlarda ishlashadi bo'lgan. Professiografik adabiyotlarni o'rganib vatizimli qabul nomoyiliga tayangan holda umumlashgan professiogramma chizmasi ishlab chiqilgan.

Ismoletashigan professiogramma sxemasi: Kasbning ijtimoiy va kasbiy tafsifi.

- 1) Kasb yoki mutaxassislikning rasmiy qabul qilingan nomi va latutasi bo'yicha nomi;
- 2) Taksonomik ma'lumotlar: shakli, turi, sinfi, guruhi, muddaviyatligi;
- 3) Ish joyi nomi;
- 4) Faoliyoti shu soha bo'yicha kasbiy guruhidagi o'rni;
- 5) Favozim bo'yicha ish haqqi va uni baholash;
- 6) Aksiy malaka va favozim majburiyatları.

- 7) Zaruriy ma'lumot.
  - 8) Malaka diapazoni (razryadlar, sinflar va hokazo) shuningdek, ma'muriy, kasbiy, ilmiy rivojlanish istiqbollari.
  - 9) Muammolarning asosiy xususiyatlari: doimiy yoki keng yoki tor doira ishlarni bilan muammoli turi (tor kasbiy taklif buyuruvchilar, mijozlar bilan odamlarga xizmat kursatish sharoitiga va qo'l ostidagilarning rahbarlarga nisbatan va hokazo)
  - 10) Kasbiy layoqat tufayli diskvalifikatsiya hollarini alohida kasbiy ta'lim, kasbiy faoliyat davridagi tavsifi.
  - 11) Mehnat faoliyati asosiy xususiyatlarining qisqacha tavsifi (yosh jihatdan cheklash va boshqa holatlar) Psixogramma.
- A) Umumiy mehnat tavsifi:
1. Ish kuni va sur'ati.
  2. Mehnat dinamik omillarining tasviri va baholashi (ishga layoqat, toliqish, ishonchlik, xatosizlik va boshqalar).
  3. Mehnat sharoitlarini ish jarayonining dinamik jarayonlariga ta'siri.
  4. Ish joyi va mehnat harakatlarining psixologik tavsifi.
  5. Xato harakatlarining psixologik tahlili.
- B) Psixik jarayonlarga qo'yiladigan talablar:
1. Psixomotorika
    1. Ishning turi, statik va dinamik yuklamalar.
    2. Ishchi harakatlar, gnostik, moslashuv, bajaruvchi va boshqalar.
    3. Asosiy texnologik operatsiyalarning vaqtincha va psixofiziologik tavsifi.
    4. Psixomotorikaga qo'yiladigan maxsus talablar.
    5. Sensor va pertseptiv sohalari:
      1. Turli sensor modalliklarning sezgirligi.
      2. Kasbiy muhim signallarni qabul kilish turlari, vaqt, harakat, tezlikni qabul qilish.
      3. Sensor va pertseptiv sohalarga qo'yiladigan maxsus talablar.
    6. Anglash jarayonlarining kasbiy xususiyatlari:
      1. Mehnat faoliyatining ishonchliklari va samarasiga tasavvurlarning ta'siri.
      2. Ijodiy faoliyatga bo'lgan talablar.
      3. Ustun fikrlash turlari.
      4. Ish bajarilayotganda qaror qabul qilish xususiyatlari, mustaqillik

- mas'uliyati, o'zini - o'zi nazorat qila olish, stressga bardosh berish talablar.
5. Ustun keluvchi xotira turi. Xotiraga qo'yiladigan talablar.
  6. Nutqqa qo'yiladigan talablar. Nutq xususiyatlari.
  7. Diqqat va uning xususiyatlari.
- V) Emotsional - iroda sohasiga qo'yiladigan talablar:
1. Ustun keluvchi emotsional holatlar tavsifi.
  2. Mehnat asab - psixik zo'riqishning o'ziga xos darajasi.
  3. Maxsus talablar.
  4. Iroda va uning xususiyatlari.
- G) Mehnat jarayonida tipik psixologik jarayonlar:
1. Monotaniya va toliqish.
  2. Mehnat jarayonida somatik psixologik holatlar.
  3. SHIu kasbga xos bo'lgan shuningdek e'tiborli e'tiborsiz holatlar.
- D) Muhim kasblar ansambli (asosiy sifatlar):
1. Shaxsnинг umumiy va spetsifik yo'nalishi tuzilmasi, kengligi, faoliyti, bardoshliligi.
  2. Ijtimoiy kasbiy mas'uliyat.
  3. Optimizm.
  4. Shaxsnинг istalmagan yoki istalgan xususiyati sifatida tafomotiqli xususiyati.
  5. Shaxsnинг ma'naviy psixologik bardoshliligi.
  6. Xarakter xususiyatlari (ijtimoiy faoliik, printsiplilik, qatiyatilik, mobiqellik, rostguyluk, mardlik, tashabbuskorlik, tartiblilik, jismoniylik, optimizm, pessimizm).
- E) Chegaralash va qarshi ko'rsatmalar:
1. Xatolar oqibati va mehnat xavfsizligiga qo'yiladigan talablar.
  2. Kasbya layoqatsizlik tavsifi.
  3. Biror yoshi jihatdan chegaralash.
  4. Faoliy zaratlar va imtiyozlar.
- F) Shaxsnинг kasbiy deformatsiyalari:
1. M. Ilyanova professiografiyaning 4 ta guruhini taklif etadi: ma'lumoti, diagnostik, prognostik va metodik.
- Informatson (ma'lumoti) professiografiya oktantlar, ya'ni, kasb xonali xatoriyati oldida turgan shaxslar bilan kasbiy maslaxat ishlari o'tonorm tafthangan. Ular qatoriga o'quvchilar, kasb bilim yurtlari tarmoqchilar, ishlazlar va kasblarni almashtirmoqchi bo'lganlar

**kirishi mumkin.**

Informatsion professiografiya ishlari maxsus kasbiy adabiyotlarni tahlili va xujjatlarni o'rganish orqali amalga oshiriladi.

Diagnostik professiografiyalash mehnat samaradorligining pastligi mahsulot sifatining pastligi, avariya holati, travmatizm, kadrlar qunimsizligi sabablarini aniqlash uchun o'tkaziladi.

Diagnostik professiografiyalash quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi:

1. Faoliyat mazmuni:

- 1) Mehnat predmeti va masalalari.
- 2) Ish natijalari sifatiga qo'yildigan talablar.

2. Mehnat qurollari:

1) Ish turi va tartibi.

2) Boshqarish organlari.

3) Ish joyini tashkil etish.

3. Mehnat sub'ektining faoliyati:

1) Harakat turlari va ularning tavsifi.

2) Ishni rejalashtirish va bajarish xarakteri.

3) Kasb faoliyatiga xalaqit beruvchi omillar.

4) Mehnat jarayonida uchraydigan xatolar, brak, travmalar turi.

4. Mehnat sub'ektining faoliyati:

1) Ishchilarning o'zaro aloqalari tuzilmasi.

2) Ishni rejalashtirish va nazorat.

5. Kasbning mehnat sub'ekta shaxsiy psixologik va psixofiziologik sifatlariga qo'yildigan talablar.

6. Mehnat sub'ekta faoliyatining past samaradorligi sabablarini tashhisi.

7. Kasbiy faoliyatni takomillashtirish bo'yicha amaliy - eksperimental tekshiruv.

Diagnostik professiografiyalash empirik ma'lumotlarni yig'ish usullari orqali amalga oshiriladi.

Prognostik professiografiyalash kasbiy faoliyatni takomillashtirish bo'yicha asoslangan tavsiyalarni berish maqsadida qo'llaniladi.

1. Kasbiying umumiyl tavsifi:

1) Kasb rivojlanishi tarixi va istiqbollari.

2) Kasbiy faoliyatni bajarilishining ijtimoiy - iqtisodiy sharoitlari.

3) Kasbiy muhit.

1. Kasbiy dala va mazmuni va jihat'i:

1) Kasbiy dala tavsifi.

2) Kasbiy bilimni aniqlovchi omillar.

3) Kasbiy bilimni rivojlanishi proqnozi.

4. Kasbiy ta'lim malaka oshirish:

1) Kasbiy ta'lim darajasi.

2) Kasbiy tayyorgarlik.

3) Malaka oshirish.

4. Ishchining kasbiy moyilligi:

1) Mutaxassislik sohasining kengligi.

2) Asosiy malakalar darajasi.

3) Mutaxassislik va kasbuy o'zgartirish imkoniyati.

5. Kasb istiqbolini baholash:

1) Shaxsning kasbiy - psixologik potentsiali.

2) Ishchining kasbiy faolligi.

3) Kasbiy o'zini o'zi takomillashtirish karera.

Prognostik professiografiyalash genetik usullarni, shuningdek modellasshtiruvchi eksperimentlarni qo'llaydi.

Metodik professiografiyalash psixologga mehnat sub'ektining holati va muhim kasbiy sifatlarni urganish usullarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Judqiqotmaqasadiyavazifalarigako rametodik professiografiyalash o'mina ham o'zgaradi. Masalan, kasbiy mehnat va xordiq tartibi, lordiy toliqish, befarqlik, passivlikka bo'lgan ta'sirini o'rganishda bunday exema qo'llaniladi.

6. Mehnat sub'ekti faoliyatining mazmuni:

1) Harakat turlari va ularning tavsifi.

2) Ishni rejalashtirish va bajarish xarakteri.

3) Emisional ko'rinishlar.

4) Ish joyidagi noqulaylik turlari.

5) Faoliyat jarayonida paydo bo'ladigan xatolar, brak travma

7. Mehnat sharoitlari:

1) Ijtimoiya - gigienik muhit (havo darajasi, chang, namgarlik va boshqa).

2) Ijtimoiy mamlakuting yoritilganligi, shovqin.

3) Ijtimoiy gotibi.

4) Xaq to'lash va rag'bat shakli.

Mutaxassisning kasbiy maxoratini o'r ganishda professiografiyalashning quyidagi sxemasi qo'llaniladi.

1. Faoliyat mazmuni:

1) Ishchilar malakasiga qo'yiladigan talablar (kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar, shuningdek, sifatlar va qobiliyatlar).

2) Ishchilarning xuquq va majburiyatlar.

2. Mehnatni tashkillashtirish:

1) Malaka oshirish.

2) Kasbiy psixologik potensial.

3) Ijodiy qobiliyatlar.

3. Mehnat sub'ekti faoliyati:

1) Harakatlar turi ularning tavsifi.

2) Ishni rejalashtirish va uni nazorat qilish.

3) Faoliyat individualligining xususiyatlari.

Ta'limga yo'naltirilgan professiografiyalash - asosiga kasb sub'ektligi haqidagi g'oya qo'yiladi: kasb egasi, faoliyatning haqiqiy sub'ekta bo'lib, unga bir qator maxsus belgilar xos.

Bu professiografiyalashning mualliflari uning mazmun - mohiyati va loyihalashtirish texnologiyalarini o'r ganib chiqishdi. "Kasb pasporta" bloki kasb va mutaxassisliklar nomining modifikatsiyasi, kasbiy yo'nalish, kasb maqsadi, ta'lim darajasi haqida qisqa ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. "Kasbning asosiy ob'ekta" (sohasi) bloki kasb turi haqida ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. "Inson - tabiat", "inson - inson", "inson - texnika", "inson - belgilar tizimi", "inson badiiy obraz" va boshqalar.

Bu blok mazmuni boshqa professiografiyalash bloklarining asosi hisoblanadi. "Kasbiy predmetli salohiyat" bloki ko'p tizimli ta'lim sifatida kasbiy muhim tavsifini o'z ichga oladi. Mutaxassis kasbi qaysi sohaga tegishli ekanini, qaysi asosiy ob'ektlarga yo'naltirilgan, bu ob'ektlar qanday ob'ektlar, bu sohada mehnat natijasi yoki mehnat mahsuli qanday ahamiyatga egaligi haqidagi ma'lumotga ega bo'lishi lozim. "Ijtimoiy kasbiy salohiyat" blokida shaxs ob'ektining quyidagi yo'nalishlari aks etadi.

Fikrlash potensialining rivojlanishi.

SHaxsnin o'zini nazorat eta olish va rivojlantirish imkoniyatlari

SHaxsnin muvaffaqiyat strategiyasiga yo'naltirilganligi.

SHaxsnin bozor iqtisodiyoti sharoitida bardoshligi.

Professiografiyada ekologik, huquqiy va iqtisodiy madaniyat muzsalalari ham nazarda tutiladi.

Maxsus psixofiziologik talablar bloki - ishchining kasbiy faoliyati iqtisodidan psixofiziologik xususiyatlariiga qo'yiladigan talablarni aks ettiradi. Bunga tibbiy ko'rsatmalar, jinsiga, yoshga bo'lgan va sanitariya-gigienik talablar kiradi.

### 19.3-§. Kasb tavsiflari — profssiogramma

To'g'ri kasb tanlash mehnatning mazmuni, harakterini iloji boricha ke'proq bilishni hamda bo'lg'usi mehnat faoliyati jarayonidagi munosabatlar xususida iloji boricha to'laroq ma'lumotga ega bo'lishni taqozo etadi. O'quv mashg'ulotlari sinfdan tashqari olib horladigan turli ish formalari, ijtimoiy foydali, ishlab chiqarish mehnati, mutaxassislar bilan bo'ladigan uchrashuv suhbatlar, adabiyotlarni mustaqil ravishda o'r ganish va boshqa shu singari tadbirlar kasb to'g'risida tegishli bilimga ega bo'lish manbaidir.

Kasb to'g'risidagi eng muhim manbalardan biri profssiogramma hisoblanadi. Profssiogramma - kasbga berilgan harakteristika bo'lib, o'sha kasb odamning shaxsiy fazilatlari: aqliy, psixologik, jismoniy va boshqa fazilatlariiga qo'yadigan asosiy talablarni o'z ichiga oladi.

Barcha professiofammalar taxminan quyidagicha sxema asosida tuziladi:

- kasbning nomi;
- kasbning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi ahamiyati va o'rni;
- mehnatning turi: qo'l mehnati, mexanizatsiyalashtirilgan, automatishtirilgan mehnat;
- mehnat predmeti va mahsuloti;
- ish bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va mahorat;
- ish sharoitlari, ish joyi;
- mehnat tartibi (smenalilik, bir xillik va shu kabilalar) va dam olib di tartibi;
- kasbning sog'likka to'g'ri kelmasligi haqida tibbiy xulosasi;
- shaxsnin irodaviy ishchanlik va boshqa fazilatlariiga bo'pitildigan talablar;

- kasbning shaxsga: uning umumiyligi madaniyat darajasining shakllanishiga, aqliy qobiliyatlarining rivojlanishiga, harakteriga va shu kabi sifatlariga ko'rsatadigan ta'siri;
- kasb o'rGANISH yo'llari, ta'lim muassasalarining harakteristikasi va ularga kirish shartlari;
- kasbiy o'sish istiqbollari;
- turdosh kasblar.

Har bir o'smir o'z mehnat puli qanday boshlanishi to'g'risida o'ylar ekan, o'zi uchun mo'ljallanayotgan kasbning professiogrammasini tuzib chiqishi foydali bo'ladi. Bunday ish unga o'zining bo'lajak kasbi to'g'risida ko'proq narsalarni bilib olish, o'sha kasbga o'zining kasb jihatidan qay darajada mos kelishini baholash imkonini beradi. Professiogramma tuzish siz o'zingizda shakllantirishni yoki rivojlanishni zarur deb hisoblayotgan kasb jihatidan muhim sifatlarni belgilab olishga yordam beradi (ular professional rejaga asos qilib olinmog'i kerak). Professiogramma tuzayotgan vaqtida «Kasblar olami» entsiklopediyasidan olingan maqolalardan, har xil ma'lumotnomalaridan foydalanish mumkin. Amaliy harakterdag'i oid ba'zi ma'lumotlarni buyurtmachi korxona mutaxassislari bilan yoki kasbiy maslahatchi bilan o'tkaziladigan suhbatlardan olish mumkin.

Quyida misol tariqasida ikki kasb: «Stanoklar va avtomat liniyalarining sozlovchisi», «Melioratsiya ishlari mexanizatori» kasblarining professiogrammasi keltirilgan.

#### **Stanoklar va avtomat liniyalarining sozlovchisi**

**Sozlovchilik kasbi** — eng yangi va istiqbolli kasblardan biridir. U sanoatda murakkab avtomat va yarim avtomat uskunalar bilan bir vaqtida paydo bo'ldi. Avtomatlashirilgan ishlab chiqarish sharoitida bu kasbning ahamiyati doimiy ravishda ortib bormokda.

Sozlovchining ishlab chiqarishdagi asosiy vazifasi — stanoklarni va avtomat liniyalarin ma'lum bir turdag'i mahsulotlarga ishlov berishga tayyorlashdan iboratdir. Sozlovchi detallarga sinov tariqasida ishlov berish tadbirini amalga oshiradi, asbob-uskunalarining ishini kuzatib boradi. Berilgan o'lchamlardan qandaydir chekinishni sezganda sozlovchi mashinaning qaeri buzilganligini aniqlaydi hamda o'z bilimi, mahorati va malakalariga tayangan holda u kamchiliklarni

yo'qotib mashinani tuzatadi. SHuningdek, u turli xildagi remont ushlari, uskunalarini sinash tadbirlarida qatnashadi, har xil tipdag'i stanoklarni, nazorat avtomatlarni, avtomat liniyalarining transport qurilmalarini sozlab beradi, robotlarni sozlaydi. Stanoklarni sozlash bilan bog'liq bo'lgan tegishli hisob-kitob ishlarni bajaradi.

Stanoklar va avtomat liniyalarining sozlovchisi yuksak darajada texnik bilinga va yaxshi xotiraga ega bo'lishi kerak.

Turli-tuman texnik vazifalarni xal qilish zaruriyati bilan bog'liq bo'lgan ishlarni bajarayotgan sozlovchi uchun mantiqiy jihatdan to'g'ri o'ylash va ijodiy fikrlash g'oyat muhim ahamiyatga egadir. Uskunalardagi buzuqlik ko'zga yaqqol ko'rinish turmasligi sababli odatda kuzatuvchanlik va xushyorlik bilan ish yuritadigan sozlovchilar o'z ishida ijobiyl natijalarga erishishlari mumkin. SHuningdek og'ir vaziyatlar vujudga kelib qolganda sabr-toqatli bo'lesh, puxta ishlash va o'zini yo'qotib qo'ymaslik ham muhimdir.

Sozlovchilar mashinasozlik, oziq-ovqat, to'qinachilik sanoati ushunalarida va boshqa shunga o'xshash joylarda mehnat qiladilar.

Ibu kasbni kasb-hunar kollejlariда o'rGANISH mumkin. Bu sohada bilm olishni esa mashinasozlik kasblari bo'yicha oly ta'lim muassasalarida davom ettirish mumkin.

Mashina va uskunalarini sozlovchi, dastur bilan boshqariladigan stanoklarning operatori, texnik-mexaniq kasblari turdosh kasblar hisoblanadi.

#### **Melioratsiya ishlari mexanizatori**

Melioratsiya ishlari yerlarning holatini tubdan yaxshilashga qaratilgan. Bu tabiiy sharoitlar kompleksini qishloq xo'jaligi uchun surʼ bo'lgan yo'nalishda o'zgartirish, yangi yerkanni qishloq xo'jalik uchun foydalanishga kiritish, mamlakatning turli tumani larida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini rivojlanish uchun eng qulay imkoniyatlarni vujudga keltirish degan so'zdir. Hozirgi vaqtida devorli barcha melioratsiya ishlari mexanizatsiyalashtirilgan.

Mexanizator yet kovalash mashinalari tirkalgan traktor agreemantida ekskavatorlarda va greyderlarda xilma-xil tuproq ishlarni tayyorlab surʼiy sug'oriladigan dalalarda u nasosli, yomg'irli bo'lib olipan va boshqa shunga o'xshash gidrotexnika uskunalarini tifor ixtiyadi. Mashinalarni ishga tayyorlab qo'yish, ularni artib,

tozalab turish, ayrim mexanizmlarni tekshirish va sozlab qo'yish singari ishlar mexanizatorning vazifasidir.

Barcha melioratsiya ishlari texnologik kartalar bo'yicha o'tkaziladi. Mexannzatorpng vazifasi texnologik kartani diqqat bilan tez va aniq o'rganib chiqishdan hamda o'z ishini rejalashtirishdan iboratdir. U tuproqning tashqi belgilarini va xususiyatlarini bilihi, texnikaning buzilib qolish ehtimoli bo'lgan joylarini aniqlay olishi va ularni dala sharoitida tuzatishni bilmog'i kerak. Organizmga shovqin, tebranish, chang-to'zon, noqulay ob-havo sharoitlarining ta'siri bilan bog'liq bo'lgan bu ish kishidan o'zining butun iroda kuchini hamda aktiv aqliy faoliyat ko'rsatishini talab qiladi. Uzoq muddatli xizmat safarlariga borish ham ehtimoldan yiroq emas. Mazkur kasbni tanlagan kishilarning sog'ligi yaxshi bo'lishi va ular turli qiyinchikliklarga sabotli, bardoshli kishilar bo'immoqi kerak. Ularda rang va yorug'likni sezish, tovushlarni eshitib faqlash qobiliyati rivojlangan bo'lishi lozim.

Bu kasbni qishloqlardagi kasb-hunar maktablarida o'rganish, bu sohadagi bilimi esa agror universitetda va boshqa oliy o'quv yurtlarida davom ettirish mumkin.

Keng sohadagi mexanizator, sug'oriш ustalari, drenaj mashinalarining mashinista turdosh kasblar hisoblanadi.

#### Nazorat savollari:

1. Professiografiyada nima o'rganiladi?
2. Professiografiyaning asosiy tamoyillari qaysilar?
3. Professiografiya o'tkazish xususiyatlari nima bilan belgilanadi?
4. Professiografiya maqsadlari qaysi faoliyat sohalari bilan bog'langan bo'lishi mumkin?
5. Professiografiya natijalari nimada aks etadi?
6. Professogrammaning muhim tarkibiy qismi nima?
7. Psixogramma nima?
8. Professiografiyada qanday usullar qo'tilanadi?
9. Professiografik tadqiqotlar yo'nalishlarida qanday professiografiya chizmasidan foydalanish tavsija etiladi?
10. Professogramma nima?
11. Unga kanday ma'lumotlar kiradi?

12. Kasb tanlayotganlarga professiogrammalar qanday yordam kurashishi mumkin?

13. O'zingiziing bo'lg'usi kasbingiz tavsifini tuzib chiqing.

## 20-MODUL. PEDAGOGNING KREATIVLIK POTENTIALI DARAJASINI ANIQLOVCHI MEZONLAR

### 20.1-§. Pedagog kreativlik potensialining ustuvor tamoyillari

Talabalarni kreativ fikrlashga o'rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantira olish uchun avvalo o'qituvchining o'zi kreativ, ijodkor shaxs bo'lishi zarur. Bordi-yu, uning o'zi kreativlik sifatlariga ega bo'limsa, u holda qanday qilib, talabalarni kreativ fikrlashga rag'batlantira oladi. Chiqariladigan yagona xulosa quyidagicha: o'qituvchining o'zi kreativ, ijodkor bo'lsagina, talabalar ham shunday bo'la oladi.

O'qituvchining ijodkor va kreativ bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishga intilishi zarur. Darslarda o'qituvchi "kreativlik yo'l xaritasi" ga ko'ra quyidagi 4 ta yo'naliш bo'yicha harakatlanadi va ulardagи harakatlar pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilari (Patti Drepreau) sanaladi: 1) ijodiy fikrlash ko'nikmalarini namoyon etish; 2) talabalarni o'quv fanlarini qiziqish bilan o'zlashtirishga rag'batlantiruvchi strategiyalardan soydalana olish; 3) innovatsion yondashuv va pedagogik masalalarning yechimini topishga kreativ yondashish; 4) kutiladigan natija<sup>27</sup>.

Pedagogning kreativlik potensiali ko'p darajali jarayon va u quyidagi tamoyillarga tayanadi:

- Muammoli xarakterga egalik;
- Ijodiy yo'naltirilganlik;
- Imkoniyatlarni oshirib borish;
- Individuallikka erishish;
- Kreativlikning yorqin namoyon bo'lishi;
- Bir butunlik, izchillik, tizimlilik;
- Shaxsnинг individual xususiyatlari va hayotiy faoliyatda ortirgan sifatlarining o'zaro uygunligi.

Pedagogning **kreativlik potensiali** uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi

monladi. Mazkur sifat shaxsnинг o'z-o'zini namoyon qilish tayyorlikka egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ potential negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatları, imtiyaz va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi.

Kreativ potential bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq. Pedagogning kreativ potensiali an'anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligi; yangi g'oyalarni qaratish qobiliyat;

- bir qolipda fikrlamaslik; o'ziga xoslik; tashabbuskorlik; omoniylitkka toqat qilish;

Pedagog kreativlik potensialiga ega bo'lishi uchun kasbiy turiyatida quyidagilarga e'tiborini qaratishi zarur:

- kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish;
- yangi-yangi g'oyalarni yaratishda faoliyk ko'rsatish;

- ilqor pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish;

- hamkorlar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish

masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarining rivojlanishiga yordam berdi. Pedagog o‘z oldiga muammoli masalalarini qo‘yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo‘lgan dalillar bilan to‘qnash keladi. Buning natijasida o‘z ustida ishlash, mustaqil o‘qib o‘rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi.

## 20.2-§. Pedagog kreativ potensialining tarkibiy asoslari

O‘qituvchilar darslarda talabalarning erkin fikr yuritishlarini ta’minlay olishlari kerak. Xuddi shu holatdagina ularning fikrlari kreativlik kasb etadi.

“Kreativlik darslarida talabalar birgina “to‘g‘ri” javobni izlash o‘rniga o‘zlarini erkin va hotirjam sezishlari va yuzaga kelgan muammolarga turli yechimlarni izlab topishlari maqsadga muvofiqdir. Qancha ko‘p g‘oya va fikrlarni o‘rtaga tashlasalar, shuncha ko‘p g‘oyalalar kreativ bo‘ladи. O‘quvchilar “Aqliy hujum” metodidan foydalanganlarida noaniqlikka duch kelishlari mumkin. Talabalarni to‘g‘ri yo‘liga yo‘naltirish va keyinchalik ularni mustaqil “sayohatga” qo‘yib yuborish ularda kreativ va, hattoki noaniq bo‘lsada, turli g‘oyalarni o‘ylab topishga bo‘lgan intilishni kuchaytiradi. Chak Djons aytganiday “Qo‘rquv xissining yuzaga kelishi kreativlikka asoslangan har qanday ishda mavjud; havotir kreativlikning xizmatkoridir”. Talabalarni yo‘naltirish talabalarda o‘qituvchiga bog‘liq bo‘lib qolmay, ularda avtomatik ravishda harakat qilish ko‘nikmasini shakllantiradi. Yuqori sinf o‘quvchilari yoki yuqori kurslarining malakali talabalari jarayonni kichik alohida qism va bosqichlarga bo‘lib, yosh va tajribasiz talabalarni ruhlantirib, bu esa o‘zz o‘rnida kreativlik ko‘nikmasining shakllanishaga o‘z ta’siri o‘tkazadi. O‘qituvchilar talabalarga manbalar bilan ta’minlash, maslahat berish, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, ularning progress va muvafaqiyatini aniqlashda mezonlarni ishlab chiqishda murabbiy sifatida xizmat qildilar. Shuningdek, yuqori kurs talabalari nafaqat ichki kreativlikni shakllantirish, balki kichik guruhtarda ishlash, kreativlik va sharhlar berishga qiziqtira oladilar ham (m: ong sayohati, tasavvur chegarasi, kelajakdag‘i muammolarni yechish yangilik ochmoq va kashf etmoq)”.

Kreativlik potensialiga ega pedagog o‘zida quyidagi malakalarni mosayon eta oladi:

- bajariladigan vazifaning mohiyati va ahamiyatini belgilay olish;

- masalaning qo‘yilishini tahlil qila olish;

- masalani hal qilish rejasini tuzish;

- masalani hal qilishda samarali metodlar (analiz, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash va b.)larni qo‘llash;

- masalani hal qilish usullarini tanlay olish;

- qabul qilingan qarorning to‘g‘riligini asoslash va qayta teleborish;

- masalani hal qilishda kichik tadqiqot (izlanish)ni olib borish;

- masalani hal qilish sharoiti, jarayonning borishi va masala yozimi yakunlarini umumlashtirishga oid dalillarni rasmiylashtirish

Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga osbirishi unda kreativlik potensialini yanada rivojlantiradi. Hattida pedagog:

Faoliyat samaradorligini baholashda pedagogning ijodkorligi – kreativ potensiali darajasini baholash muhim ahamiyatga o‘pu.

Pedagogning kreativlik potensiali darajasini aniqlovchi mezonlar quyidagi sanaladi:

1. Tashabbuskorlik,
2. Kreativ qobiliyatga egalik,
3. Kreativ faoliyk,
4. Islamuvchanlik,

Uldib mezonlar pedagoglar kreativ potensialini uch darajada aniqlash imkonini beradi (20.1-jadval):

**20.1-jadval. Pedagog kreativ potensialining muhim darajalari**

№	Mezonlar	Daraja xususiyatlari
1	Tashabbuskorlik	Murabbiyani zavoddida surʼi tashabbusini ilgari surʼadi, kreativ qibiliyatga egaligiga axtaril sanayishni bormasi, kreativ jihaidan o‘tmis fizi, tizamuvchan
2	Kreativ qobiliyatga egalik	Bu ram o‘yoki bu tashabbusni ilgari surʼadi, kreativ qobiliyatga egaligi murabbiyati surʼasida, mino namoyon bo‘ladi, kreativ jihaidan bir qadar fizi, tizamuvchan bo‘lishi surʼadi
3	Kreativ faoliyk	Chorchi u yetmicho usoslanmagani bo‘lsa da, tashabbusni ilgari surʼiga surʼadi, kreativ qibiliyatga egaligiga surʼasida, mino namoyon bo‘lasiydi, izlamuvchan bo‘lishi surʼadi

Shunday qilib, malaka oshirish kurslarida “Kreativ pedagogika” moduli (fani)ni o’qitish pedagoglarda ularga xos kreativ sifat va ijodiy-pedagogik faoliyat malakalarini samarali rivojlantirish imkonini beradi. Pedagoglarda kreativlik sifatlari, ijodiy-pedagogik faoliyat malakalarini rivojlantirish borasida amerikalgi tadqiqotchi Patti Drepeau tomonidan taklif qilingan yo’llarda foydalanish kutilgan natijalarni qo’liga kiritishga yordam beradi. Qolaversa, pedagoglarda kreativlik sifatlari shakllantirisha ustuvor tamoyillar asosida ish ko’rish aniq maqsaga yo’naltirilgan faoliyat samaradorligini kafolatlaydi. Malaka oshirish kurslarida amaliy masbg’ulotlar jarayonida pedagoglarning kreativlik imkoniyatlarining aniq mezonlar asosida aniqlash, daraja ko’rsatichlarini baholash asosida bu boradagi yutuq va kamchiliklarni belgilash, yutuqlarni boyitish, kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilash mumkin bo’ladi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Pedagogik kreativlikka qanday sifatlar xos?
2. Pedagoglarda qanday ijodiy-pedagogik faoliyat malakalari mavjud bo’lishi zarur?
3. Shaxsda kreativlik sifatlari rivojlantirishning qanday yo’llari mavjud?
4. Pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar nimalarda aks etadi?
5. Shaxs kreativligini rivojlantirishning ustuvor tamoyillari qaysilar?
6. Pedagoglarning kreativlik imkoniyatlari nimalarda aks etadi?
7. Pedagoglar kreativlik imkoniyatlarining tarkibiy asoslari nimalardan iborat?
8. Pedagoglarning kreativlik imkoniyati qanday mezonlar yordamida aniqlanadi?
9. Pedagoglarning kreativlik imkoniyati qanday darajalarda namoyon bo’ladi?

## **21-MODUL. PEDAGOGLARNING KREATIVLIK IMKONIYATI DARAJASINI ANIQLOVCHI MEZONLAR**

### **21.1-§. Pedagoglarning kreativlik imkoniyatlari**

Ayni paytda jamiyat tomonidan talab qilinadigan kasblar juda ko’p. Yangi texnologiyalarni joriy etish, axborot vositalaridan foydalanish, davlatning yangi iqtisodiy tizimga o’tishi bilan tavsiflangan axborot jamiyatida mehnat bozorida yangi mutaxassisliklar paydo bo’ladi. xodimlarning funktsiyalari va vazifalari yangilanadi va munakkablashadi. Pedagoglar har doim kerak. Jamiyat jadal rivojlanmoqda, ilm-fan to’xtab qolmaydi – bilim har bir shaxs uchun alohida ahamiyatga ega bo’ladi, demak, o’z bilimini boshqalarga berayotgan inson butun jamiyat uchun ulkan qadriyatga ega bo’lib, o’siz zimmasiga yuklangan mas’uliyatga mos kelishi kerak. Ko’p nillardan oldin, insонning yoshi boshqalarni o’rgatish qobiliyatini va ish o’tipjalacining samaradorligini belgilaydi, deb ishonishgan. Vabolanki, hozirgi vaqtida ta’lim muassasalarida dars berishga tayyorlikning moray ko’rsatkichlari kasbiy tayyorgarlikdan tashqari birinchi o’rinda turadigan pedagogning shaxsiy fazilatlarini hisoblanadi. Asta-sekin pedagoglik kasbi tabaqalanib boradi, tor yo’nalishlar paydo bo’ladi.

Pedagogik faoliyatning har bir yo’nalishida pedagogning qandaydir va qo’sha sifati boshqalarga qaraganda ko’proq namoyon bo’ladi. Uchun o’qitish mavzusi, o’quvchilarning yoshi va hokazolardan qo’pi nazar, har bir pedagogda bo’lishi kerak bo’lgan qator fazilatlar mavjud. Bu o’z kasbingizga bo’lgan muhabbat, tanlagan ishingiz bilan bog’ullanish istagi, axloqiy fazilatlar, shuningdek, kreativlik.

Kreativlik yangi g’oyalarni qabul qilish va ta’lim jarayoniga muvozatiyatlarni kiritish istagini ifodalanadi, bu esa yanada samarali va qo’sha o’qitish o’quv jarayoniga turki bo’lishi mumkin. “Kreativlik” o’rnida bata sinonim sifatida qaralishi mumkin bo’lgan pedagogning kreativlik qobiliyatları talabalarning qiziqishini belgilite. Bu juda muhimdir. Shu sababli, ushbu maqolaning asosiy misqali “pedagog kreativligi” tushunchasini chuqurroq oolib berish, uchun ittining shakllanishi manbalari va rivojlanish usullarini kompleks va olibtu sifatni amaliyotda qo’llashning mumkin bo’lgan

natiyalarini ko'rib chiqishdir.

Kreativlik, Kreativ so'zi inglizcha "yaratish", "yaratish", "yaratish" degan ma'noni anglatadi. Kreativlik - bu an'anaviy naqshlarga mos kelmaydigan yangi g'oyalarni yaratish va amalga oshirishga yordam beradigan shaxsnинг kreativlik qobiliyatları. Kreativlik standart savol va masalałarni g'ayrioddiy tarzda hal qilishga, yangi usullar va vositalarni topishga yordam beradi. Aytishimiz mumkinki, kreativlik nafaqat kreativlik, balki vaziyat yoki muammo haqida g'ayrioddiy yangi tasavvur yaratish qobiliyatidir.

## 21.2-§. Pedagoglarning kreativlik imkoniyatini aniqlovchi mezonlar

Kreativlik mezonlarini quydagicha aniqlash mumkin:

- stereotipik fikrlashni rad etgan holda, mavjud bo'lgan narsadan foydalanib, yangi narsalarni yaratish;
- aqlning moslashuvchanligi va o'ziga xosligi;
- reseptivlik - g'ayrioddiy tafsilotlarni, noaniqliklarni va qarama-qarshiliklarni sezish, bir fikrdan ikkinchisiga tezda o'tish qobiliyat;
- sintez va tahliiga moyillik;
- metaforik - nostonart sharoitlarda ishlashga tayyorlik, uyushmalar tuzishga moyillik, murakkabda oddiyini ko'rish qobiliyat va aksincha;
- fikrning to'g'ri yo'nalishini intuitiv ravishda his qilish qobiliyat;
- g'oyalaringizni batafsil ishtab chiqish qobiliyat;
- ko'p sonli turli g'oyalarni yaratish qobiliyat;
- qoniqish kreativlik fikrlash ishining natijasidit.

Agar biz kreativlik ayniqsa muhim bo'lgan aniq sohaʃar haqida gapiradigan bo'lsak, unda quydagi misollar keltirilgan:

Biznes (Yangi g'oyani o'ylab topish va amalga oshirish orqali siz o'z biznesingizni juda yaxshi rivojlantirishingiz mumkin, bunga raqobatchilar xalaqit berinaydi, chunki siz bu sohada birinchisiz).

Reklama (Kreativlik yangi mahsulotlarni shunday burchakdan reklama qilishga yordam beradi, shunda xaridor ushbu mahsulot

aynan o'ziga kerak bo'lgan narsa ekanligini hal qiladi).

San'at (Har qanday san'at asari kreativlik mehnat natijasidir. O'z asarini yaratishda an'anaviy g'oyalarga amal qilmay, o'z sohasida yangi yo'llarni o'ylab topganlar eng kreativdir. Shunday qilib musiqa va kino janrlarining yangi uslublari paydo bo'ladi).

Umuman olganda, kreativlik har qanday sohada foydali bo'lishi mumkin. Misol uchun, o'qitishda, hatto pedagog uchun muayyan o'qitish sxemalari va xatti-harakatlar qoidalari mavjud bo'lsa ham, siz bolalning yoki bir nechta bolalarning o'rganish qiyinchiliklariga duch kelishingiz mumkin. Standart o'qitish sxemalari ishlamaydi, kreativlik yondashuv kerak.

Muammo ni hal qilishning an'anaviy usullari ishlamaydigan har qanday vaziyat kreativlikni talab qiladi.

## 21.3-§. Pedagogik kreativning darajalari

Pedagogning kreativligi kasbiy kompetentsiya bilan bog'liq.

Pedagogik faoliyatda bu uslubiy va diagnostik kreativlik (yangi o'qish usullari va usullarini izlash; talabalarni o'rganishning yangi usullarini izlash).

Pedagogik muloqotda bu kommunikativ kreativlik (yangi kommunikativ vazifalarni izlash va topish; sinfdagi o'quvchilar o'stasiда shaxslararo o'zaro ta'sirni safarbar qilishning yangi usullari, guruh ishida muloqotning yangi shakllarini yaratish va boshqalar).

Shaxs sohasida bu pedagogning kreativlik shaxs sifatida o'zini o'ziga angash, uning kasbiy rivojlanish yo'llarini belgilash va o'zini takomillashtirish dasturini yaratishga asoslangan o'zini o'zi angashdir.

Olimlar pedagogik kreativning quydagi darajalarini aniqlaydilar:

**Kreativlikning birinchi daroji** - sinf bilan elementar o'zaro munosabatlardan daroji. Pedagog allaqachon fikr-mulohazalardan foydalananadi va uning natijalariga ko'ra o'z ta'sirini o'zgartiradi. Ammo u bosqiqi pedagoglarning tajribasiga asoslangan shabloniga ko'ra, "yo'llanmaga muvofiq" harakat qiladi.

**Ikkinchi daraja** - uni rejalashtirishdan boshlab dars faoliyatini

optimallashtirish darajasi. Bu erda kreativlik pedagogga allaqachon ma'lum bo'lgan o'qitishning mazmuni, usullari va shakllarini mohirona tanlash va tegishli kombinatsiyadan iborat.

**Uchinchi daraja** evristik. Pedagog talabalar bilan jonli muloqot qilish imkoniyatlardan foydalanadi. Pedagog kreativlikotining eng yuqori darajasi uning to'liq mustaqilligi bilan tavsiflanadi. U tayyor texnikadan foydalanishi mumkin, lekin ularga o'zining shaxsiy ta'sirini qo'yadi. U ular bilan faqat uning kreativlik individualligi, o'quvchining shaxsiy xususiyatlari, sinfning o'ziga xos tayyorgarlik darajasi, tarbiysi va rivojlanishiga mos keladigan darajada ishlaydi.

Shunday qilib, asosiy darajalar: optimallashtirish, evristik, shaxsiy - mustaqil.

**Pedagogik kreativlik** - bu allaqachon to'plangan narsalarni o'zlashtirishdan mayjud tajribani o'zgartirish va o'zgartirishgacha bo'lgan jarayon. Bu pedagogik vaziyatga moslashishdan uni o'zgartirishgacha bo'lgan yo'l, bu pedagog kreativining mohiyati va dinamikasidir.

Kreativlikning quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin:

**1. Keng ma'noda kreativlik** - bu o'zi uchun yangi narsalarni kashf etish, ya'ni pedagogning pedagogik muammolarni hal qilishning nostandart usullari variantlarini topishi. Bu erda pedagog algoritmik stereotipik usullardan sub'ektiv yangilariga o'tadi. Kreativlikning ushbu darajasiga misollar: barcha mumkin bo'lganlardan maqbul echimni tanlash, darsda improvizatsiya paytida yangi, o'zgartirilgan sharoitda eski texnikadan foydalanish, o'quvchining o'ziga va boshqalarga muvaffaqiyatsizliklari sabablarini tushuntirish. Kreativlikning bu darajasi ko'pchilik pedagoglar tomonidan o'z ishlarida qo'llaniladi.

**2. Kreativlik tor ma'noda** - o'zi uchun ham, boshqalar uchun ham yangi narsalarni kashf etish, yangilik. Bu hodisalarning odatiy ko'rinishini o'zgartiradigan va jamoat pedagogik tajribasini qayta tiklaydigan yangi, o'ziga xos uslublar yoki yaxlit yondashuvlarni yaratishdir. Innovatsiya - bu fikrlashning alohida turi bo'lib, u birinchi navbatda umumiyl muammolarni ochish usullarini, so'ngra original echimni va uni pedagogik amaliyotga qaytarishni o'z ichiga oladi. Bu o'z faoliyatini nostandart shaklda o'zgartirish, birlashtirish va tartiblash qobiliyatidir. Innovatsiya, shuningdek, barqaror kasbiy

yo'nalish, ijobiy o'z-o'zini anglash, o'z g'oyalarni himoya qilish, ularning yangiliqi va hayotiyligini isbotlash qobiliyatini bilan ajralib turadigan shaxsiyatning alohida turi bo'lib, bu individuallik va muallifning kontseptsiyasidir. fan va tajriba. Kreativlikning bu darajasiga har bir pedagog ko'tarilavermaydi, garchi bu darajadagi kreativlik pedagog uchun yopiq emas. Shu bilan birga, bu yo'l odatda pedagogning butun hayotini talab qiladi.

Kreativ pedagog:

- Moslashuvchanlik
- Metaforik
- Sezuvchanlik kreativlik pedagog
- Ravonlik
- Originallik ishlab chiqish

**Moslashuvchanlik** - pedagogning vaziyat va vazifaga mos kelmaydigan xatti-harakatlar, fikrlash usullari va hissiy reaktivyalardan osongina voz kechish va yangilarini ishlab chiqish yoki qabul qilish qobiliyatini.

**Reseptivlik** - tashqaridan kelayotgan narsani osongina idrok etish, bir fikrdan ikkinchisiga o'tish qobiliyatidir.

**Metaforiklik** - u yoki bu maqsadda har qanday ma'no, tuyg'u yoki belgini bir ob'ektdan ikkinchisiga o'tkazish qibiliyatini.

**Ravonlik** - muammoli vaziyatning ko'plab mumkin bo'lgan shaharlarini o'ylash qobiliyatini.

**Eliboratsiya** - bu paydo bo'lgan g'oyalarni batafsil ishlab etishlidi qobiliyatini.

**O'ziga xoslik** - bu shaxsning o'ziga xosligini tashqi belgilari orqali ifodalash qobiliyatini.

Kreativlik pedagog:

• Gurutidagi kreativlik muhitni rag'batlantiradi va qo'llab-qovvatlaydi, bu sizga stresssiz, tashvish va jazodan qo'rmasdan gapicchi fikrlash, ishlash imkonini beradi.

• rag'batlantiruvchi, kreativlik vaziyatlarning paydo bo'lishini ta minlaydi.

• Kreativlik, pedagogik improvizatsiya, kutilmagan pedagogik yechim topishi va uni amalga oshirish orqali namoyish etadi;

• pedagoglik faoliyatida o'z qobiliyatları, o'z-o'zini anglash va omir samaradorligini baholash haqida fikr yuritadi.

- g'ayrioddiy fikrlar, o'ziga xos g'oyalar va kreativlik yutuqlarga bag'rikenglik va ma'qullik ko'rsatadi.

- talabalarni o'z fikrlarini, (shuningdek, birovning) kreativlik fikrlash va erishilgan natijalarini qabul qilish va qadrlashga o'rgatadi.

#### 21.4-§. Pedagog kreativligini rivojlantirish yo'llari

Hozirgi vaqtida ta'lif xodimlarining malakasini oshirish tizimida turli kurslar, konferensiya va uchrashuvlar doirasida pedagogik mahorat darslari pedagoglarning birlgilidagi kreativlik faoliyat jarayonida kreativlik rivojlanishi shakli sifatida keng tarqaldi. Seminarlar o'z amaliyotida shaxsiy yo'naltirilgan innovatsion kreativlik texnologiyalarning turli usullaridan foydalanadilar, pedagoglarning vazifasi esa bolalarning tashabbusi, qiziqishlari va motivatsiyasiga asoslangan jamoaviy faoliyatni qurishdir. Bu pedagogga kreativlik salohiyat darajasini oshirishga, stereotiplardan xalos bo'lishga, qiymat yo'naliishlari va xatti-harakatlarini o'zgartirishga imkon beradi, jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantiradi, fikrlash va o'z-o'zini tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi va o'z taqdirini o'zi belgilashini rag'batlantiradi pozitsiya.

Pedagogik ustaxonalar o'z ishlarida hamkorlik texnologiyalari, loyihibarlar, aqliy hujum, jamoaviy kreativlik ish, kreativlik treninglar, ertak terapiyasi texnikasi va boshqalarni, shu jumladan tadqiqot kreativlik tabiatining turli shakllarini: ijtimoiy o'yin tadbirlari, teatrlashtirilgan treninglar, mahorat darslari va boshqalarni birlashtiradi.

**Aqliy hujum usuli** - bu kreativlik faoliyatni rag'batlantirishga asoslangan muammoni hal qilishning operativ usuli bo'lib, unda munozara ishtirokchilaridan iloji boricha ko'proq mumkin bo'lgan echimlarni, shu jumladan eng fantastiklarini ifoda etish so'raladi. Keyin bildirilgan fikrlarning umumiyligi sonidan amaliyotda qo'llanilishi mumkin bo'lgan eng muvaffaqiyatlari tanlanadi.

**Ertak terapiyasi** - bu xulq-atvor reaksiyalarini tuzatish, qo'rquv va fobiylar bilan ishlash maqsadida odamga psixoterapeutik ta'sir ko'rsatish yo'naliishi. Ertak terapiyasi usullari insonning ko'plab qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi: u yanada kreativlik, tasavvurga ega bo'ladi, uning ongi kengayadi, uning atrofidagi

dunyo bilan muloqot qilish osonroq bo'ladi.

Natijada, kreativlikning rivojlanishi pedagogning dastlabki kreativlik salohiyatini oshirishga, o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan chitiyojni yaratishga, kasbiy faoliyat motivatsiyasini kuchaytirishga imkon beradi. Pedagogning kreativligi o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq, shuning uchun pedagog dars va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishga kreativlik yondashishi zarur. Kreativlikni rivojlantirishning turli yo'llari bor, ularga rioya qilgan holda siz tez orada o'zingizda bu surusiyatni rivojlantirib, amalda qo'llashingiz mumkin.

Bu talabchan, raqobatbardosh va bolalar tomonidan seviladigan kreativ pedagogdir.

#### Nazorat savollari:

1. Kreativlik nimalar bilan ifodalanadi?
2. Kreativlik nima?
3. Kreativlik mezonlarini qanday aniqlash mumkin?
4. Reseptivlik nima?
5. Metaforik nima?
6. Pedagogning kreativligi nimaga bilan bog'liq?
7. Pedagogik kreativning qanday darajalarini aniqlangan?
8. Kreativlikning birinchi darajasi nima?
9. Kreativlikning ikkinchi daraja nima?
10. Kreativlikning uchinchi daraja nima?
11. Pedagogik kreativlik nima?
12. Kreativlik qanday ko'rinishda bo'lishi mumkin?
13. Keng ma'noda kreativlik nima?
14. Kreativlik tor ma'noda nima?
15. Modashuvchilik nima?
16. Rayonlik nima?
17. Laboratsiya nima?
18. O'ziga xoslik nima?

## **22-MODUL. AMALIY KREATIV PEDAGOGIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISHGA KREATIV YONDASHISH**

### **22.1-§. Ma’ruza mashg‘uloti uchun mo‘ljallangan matning vizual xususiyat kasb etishi**

Shaxsda kreativlikni shakllantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar faqatgina ko‘ngilochar xarakterdagi topshiriq, mashq yoki vazifalardan iborat bo‘lib qolishi kerak emas. Balki, talabalarga beriladigan barcha topshiriq, mashq va vazifalar mavjud davlat ta’lim standartlarga mos kelishi, talabalarga bilim, ko‘nikma va malakalarini to‘laqonli namoyish qila olish imkoniyatini yaratishi zarur. Mashg‘ulotlar jarayonida o‘qituvchilar talabalarni asta-sekin mas‘uliyatdan ozod qilish orqali mustaqil ta’lim olishga rag‘bat bildiradigan shaxs bo‘lishlariga erisha olishlari lozim (Fisher, Frey, 2008 y.).

Pedagogning kreativligi rivojlantirishda uning ma’ruza, amaliy, seminar va laboratoriya mashg‘ulotlari uchun o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqishga ijodiy yondashish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Buning uchun pedagoglar o‘zlarida kreativlik qobiliyatini rivojlantirish yo‘lida tizimli, izchil amaliy harakatlarni tashkil etishlari zarur. Quyida ularning ayrimlari xususida to‘xtalib o‘tiladi.

#### **22.1.1-§. Matnli axborotlarni grafik shakliga o‘tkazish**

Matnli, ayniqsa, katta hajmdagi matnli axborotlar talabalar tomonidan qiyin qabul qilinadi. Zamonaviy sharoitda matnli axborotlarni grafik shakliga o‘tkazish talab etilmoqda. O‘quv axborotlarini grafik shakliga o‘tkazishda ma’lumotlarni model, sxema, jadval, diagramma, tasvir, klaster, matematik, fizik, geometrik ko‘rinishlarida ifodalash maqsadga muvofiqdir. Bu tarzda talabalarga taqdim etilgan axborotlar talabalar tomonidan samarali qabul qilinadi.

Ayni vaqtida OTM pedagoglarini qayta tayyorlash va ularning

malakasini oshirish kurslarida “Innovatsion ta’lim texnologiyalari” yo‘nalishida tashkil etilgan amaliy mashg‘ulotda tinglovchilar bilan quyidagi matnli axborotni klasterda ifodalash ko‘nikma, malakalar bilan qurollantirildi:

Lug‘aviy ma’nosiga ko‘ra “taksonomiya” tushunchasi “tartib bilan joylashtirish qonuni” ma’nosini anglatadi. Ob’ektlarni ularning o‘zaro bog‘liqligiga asoslangan holda murakkablashib boradigan darajalar ketma-ketligi (ierarxik tarz)da joylashtirgan holda turkumlashtirish, tizimlashtirish “**taksonomiya**” deb ataladi. Pedagogik taksonomiya – pedagogik jarayonning o‘zaro bog‘liq va xossasiga ko‘ra ko‘p bosqichli (ierarxik) tuzilishga ega ob’ektlarini tavsiflash, tartibga solish va tizimlashtirish nazariyasi. B. Blum rahbarligida 1956 yilda AQShda “Pedagogik taksonomiya” g‘oyalari o‘lon qilindi. XX asrning 60-yillarda D. Kratvol va boshqalar tomonidan pedagogik maqsadlarni ifodalovchi taksonomiyaning navbatdagi g‘oyalari shakllantirildi

B. Blum taksonomiyasi kategoriya (mezon)lari

No	Mezonlar	Mazmuni
1.	Bilish	Bilumlardan xabardor bo‘lishi, ularni o‘zlashtirish, yodda tutish, qayta yodga olishni ifodalaydi
2.	Tushunish	Bilimlar yuzasidan hikrash, mushbohada yurtish, nazariy holadan amaliyotga ko‘chish mantig‘ini o‘zlashtirish
3.	Qo‘llash	Bilimlarni amaliyot (amaliy harakatlar)da qo‘llash
4.	Analiz	Mavjud bilimlarga tayangan holda yaxlit, bir butun ob’ekt hodisa, voqelik va jarayonni tarkibiy elementlarga ajratgan holda o‘rganish, juz‘iy xulosha chiqarish
5.	Sintez	Mavjud bilimlarga tayangan holda ayrim, alohida tarkibiy elementlar asosida yaxlit, bir butun ob’ekt, hodisa, voqelik va jarayon to‘g‘risida umumiy xulosha chiqarish
6.	Daholash	Shaxsnинг nazariy bilim hamda amaliy ko‘nikma, malakalarga tegaligini baholash

### **22.1.2-§. Maxsus testlar bilan ishlash**

Pedagoglarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarida tinglovchilarda kreativlik qobiliyatni va sifatlari mavjudligini aniqlashda E.P.Torrensnning "Tugallanmagan rasmlar" testidan foydalanish samarali natijalarini beradi.

Mazkur test quyidagi shtrixlaran iborat noaniq tasvirlardan iborat bo'lib, tinglovchilarga ularni tugatib berish topshirig'i beriladi:

OTM pedagoglarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarida P.Torrensnning "Tugallanmagan rasmlar" testi qo'llash jarayonida tinglovchilar tomonidan ko'plab takliflar beriladi. Berilgan takliflar tinglov-pedagoglarning qay darajada kreativlik sifatlariga egaligi, tasavvurining qanchalik boyligini ifodalaydi.

### **22.2-§. O'quv topshiriqlarining turlari va o'quv mashg'ulotlar uchun o'quv topshiriqlari turlarini belgilash**

Rejalashtirilgan maqsadlar tizimi ushbu maqsadlarning bajarilishini ta'minlovchi harakatlar tizimi bilan uzviy bog'lanadi. O'quv materiallarini o'zlashtirishda ta'lif oluvchini faol harakatga undaydigan omil – o'quv topshiriqlari hisoblanadi. O'quv topshiriqlari – o'r ganilayotgan mavzu bo'yicha talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladigan ta'limiy vazifalar yig'indisi.

Shu sababli o'quv topshiriqlarini to'g'ri shakllantirish maqsadga muvofiq sanaladi. Pedagogika OTMdagi tahsil olayotgan talabalar o'quv topshiriqlarini to'g'ri shakllantirish ko'nikma, malakalarga ega bo'lishi zarur. O'quv topshiriqlarini shakllantirishda quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

1. O'quv topshiriqlarining murakkablik darajasini aniqlay olish.

2. Darsning maqsadiga muvofiq o'quv topshiriqlari tizimini shakllantirish

Bu o'rinda D.Tollingerova tomonidan quyidagi o'quv topshiriqlari taksonomiyasini taklif etilgan:

- Xotirada saqlash, qayta yodga tushirishni talab etuvchi

topshiriqlar;

- Raqamlar, ma'lumotlar bilan ishlashda oddiy fikriy operatsiyalarni taqozo etuvchi topshiriqlar;
- Raqamlar, ma'lumotlar bilan ishlashda murakkab fikriy operatsiyalarni taqozo etuvchi topshiriqlar;
- Ma'lumotlarni e'lon qilishga oid topshiriqlar;
- Ijodiy fikrlashni talab etuvchi topshiriqlar.

Har bir o'quv topshirig'i o'z ichiga yana bir necha kichik turdag'i topshiriqlarni qamrab oladi. Ular quyidagilardir:

- I. Xotirada saqlash, qayta yodga tushirishni talab etuvchi topshiriqlar:
  - 1) xabardor bo'lishga oid topshiriqlar;
  - 2) alohida dalil, son, tushunchalarni yodga olishga doir topshiriqlar;
  - 3) ta'rif, me'yor, qoidalarni yodga olishga oid topshiriqlar;
  - 4) katta hajmdagi matn, bo'lim, she'r, jadval va b.ni yodga olishga oid topshiriqlar.
- II. Raqam va ma'lumotlar bilan ishlashda oddiy fikriy operatsiyalarni taqozo etuvchi topshiriqlar:
  - 1) datillar (o'Ichash, tortish, hisoblash va b.)ni aniqlashga oid topshiriqlar;
  - 2) datillarni keltirish va ta'riflashga (hisoblash, sanab o'tish va b.)ga doir topshiriqlar;
  - 3) harakatlar jarayoni va usullarini tashkil etish va tavsiflashga oid topshiriqlar;
    - 4) ajratish va yig'ish (tahlil va sintez)ga doir topshiriqlar;
    - 5) qiyoslash va farqlash (taqqoslash va bo'lish)ga oid topshiriqlar;
    - 6) taqsimlash (kategoriyalashtirish va tafsiflash)ga doir topshiriqlar;
    - 7) datillar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik (sabab, oqibat, maqsad, vosita, ta'sir, foydalilik, vosita, usullar)ni aniqlashga oid topshiriqlar;
    - 8) mohiyumlashtirish, aniqlashtirish va umumlashtirishga doir topshiriqlar;
    - 9) murakkab bo'lmagan (kattalik, o'Ichamlari noma'lum bo'lgan) mitsotlarni yechish.

**III. Raqam va ma'lumotlar bilan ishlashda murakkab fikriy operatsiyalarni taqozo etuvchi topshiriqlar:**

- 1) ko'chirish (biror joyga uzatish, shaklini o'zgartirish)ga oid topshiriqlar;
- 2) bayon qilish (sharhlash, ma'nosini tushuntirish, mohiyatini yoritish, asoslash)ga doir topshiriqlar;
- 3) induksiya (juz'iy xususiyatga tayangan umumiyl xulosa chiqarish)ga oid topshiriqlar;
- 4) deduksiya (umumiyl holatga ko'ra xususiy xulosalar chiqarishga) doir topshiriqlar;
- 5) isbotlash (dalillashtirish) va tekshirishga oid topshiriqlar;
- 6) baholashga doir topshiriqlar.

**IV. Ma'lumotlarni e'lon qilishga oid topshiriqlar:**

- 1) umumlashtiruvchi qisqacha ma'lumot, qoralama, mazmun va b.ni ishlab chiqishga doir topshiriqlar;
- 2) hisobot, ma'lum muammoga bag'ishlangan ilmiy asar, ma'ruzalarни tayyorlashga oid topshiriqlar;
- 3) mustaqil ravishda yozma ishlar, chizmalar, loyihamlar va b.ni bajarishga doir topshiriqlar.

**V. Ijodiy fikrlashni talab etuvchi topshiriqlar:**

- 1) amaliy takliflarni ishlab chiqarishga doir topshiriqlar;
- 2) muammoli masala va vaziyatlarni hal qilishga oid topshiriqlar;
- 3) savollarni qo'yish va masala yoki topshiriqlarni ifodalashga doir topshiriqlar;
- 4) shaxsiy kuzatishlarga asoslangan holda yechimni topishga oid topshiriqlar;
- 5) shaxsiy mulohazaga asoslangan holda yechimni topishga doir (ratsional yechimga asoslangan) topshiriqlar.

Anglanganidek, pedagoglar ta'lim jarayonini tashkil etishda o'quv materiallarining xarakteridan kelib chiqqan holda yuqorida qayd etilgan topshiriqlardan ikki va undan ortig'ini tanlash imkoniyatiga ega. Bir mashg'ulotda talabalarini bir necha turdag topshiriqlar bilan ishlashga jalb etish talabalarda o'quv faoliyatiga nisbatan qiziqishni oshiradi va o'quv-bilish faoliyatini kuchaytiradi.

### **22.3-§. O'quv topshiriqlari uchun ish qog'ozlarini tayyorlash**

Ish qog'ozlari asosida o'quv topshiriqlarining bajarilishi mazkur jarayonni tezlashtirish, talabalar faoliyatini osonlashtirish va eng muhim, mumkin qadar vaqtini tejash imkonini yaratadi. Shu tufayli yetakchi xorijiy mamlakatlar tajribasida o'quv topshiriqlari bilan ishlash jarayoni uchun ish qog'ozlarini shakllantirish va ularni mashg'ulotlar uchun tayyorlashga alohida e'tibor qaratiladi.

O'zbekistonda ham mustaqillik yillarda ta'limni tashkil etishga innovatsion yondashish natijasida uzuksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida deyarli har bir dars, o'quv mashg'ulotida o'quvchi va talabalarning amally faoliyatini ish qog'ozlari vositasida tashkil etish an'anasi bir qadar shakllandi. Ayni vaqtida bu boradagi tajribani yana-da boyitishga nisbatan ehtiyoj mavjud. Shu sababli OTM pedagoglarida ish qog'ozlarini shakllantirish borasidagi ko'nikma, malakalarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, o'quv mashg'ulotlarida bajariladigan topshiriqlar uchun ish qog'ozlarining tayyorlanishi pedagoglarda kreativlik qobiliyatini yanaa rivojlanishiga yordam beradi.

Ta'lim jarayonida interfaol metodlarni qo'llashda grafik organavzerlarning grafikli tavirlaridan ish qog'ozlari sifatida foydalanish mumkin.

### **22.4-§. Kreativ yondashuv asosida o'quv fanlari bo'yicha nazorat-sinov topshiriqlarini tayyorlash, keys va darajali testlar to'plamini shakllantirish**

Zamonaviy ta'limda talabalarga tayyor bilimlarni berish emas, balki ularni bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga yo'naltirish tobona muhim ahamiyat kash etib bormoqda. Zero, tayyor bilimlarni o'zlashtirish garchi talabalarning borliqni anglashlarii, ijtimoiy munosabatlar mazmunini, u yoki bu ko'rinishdegi kishilik faoliyati mohiyatini tushunishlariga yordam beradi. Biroq, borliq va ijtimoiy munosabatlarning mavjud holatini ifoalovchi hodisa, yug'di, jarayonning tarkibiy elementlari o'rtasidagi o'zaro bitlik,

aloqadorlikni tushunish, sabab-oqibatlarini tahlil qilish, faoliyat mazmuni, yo‘nalishi va eng muhim, natijasini kafolatlovchi omillarni tahlil qilish malakalarini samarali rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi.

Shu kabi salbiy holatning olini olishda talabalarni “muammo vaziyatlar”ga ro‘para qilish metodik jihatdan samarali sanaladi.

Muammoli vaziyatlarning didaktik imkoniyatlari talabalarni o‘rganilayotgan masala (mavzu, muammo) yuzasidan fikrlash, masala mohiyatini yorituvchi tarkibiy elementlar o‘rtasidagi o‘zaro birlik va aloqadorlikni anglash, “muammo-muammoni hal qilish jarayoni-yechim” tizimi asosida masalani tahlil qilish, yechim borasida farazlarni ilgari surish, ularning maqbulligini tekshirish, yechimni bayon etish va uni himoya qilish kabi amaliy harakatlarni tashkil etishga majbur qiladi. Qolaversa, muammoli vaziyatlar yordamida talabalar o‘z bilimlarini mustaqil tahlil qilish, o‘quv bilish faoliyatiga tanqiliy yondashish, o‘rganilayotgan masala (mavzu, muammo) yuzasidan ijodiy fikrlarni ilgari surish kabi imkoniyatlarga ega bo‘ladiki, xuddi shu holat jamiyat tomonidan ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan ijtimoiy buyurtmaning to‘laqonli bajarilishini ta’minlaydi. Ya’ni, muammoli o‘qitish, uni o‘qitish jarayonida qo‘llaniladigan texnologiyalar respublika uzuksiz ta’lim tizimi tomonidan o‘z oldiga qo‘yilgan har tomonlama (aqliy, axloqiy, jismoniy, hissiy jihatdan) rivojlangan barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tayyorlashdan iborat ijtimoiy buyurtmaning bajarilishini ta’minlovchi zarur pedagogik shart-sharoitni vujudga keltiradi. Shu sababli bugungi kunda ta’lim tizimida muammoli ta’limdan foydalinish, muammoli ta’lim texnologiyalarini samarali qo‘llashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, so‘nggi yillarda oliy ta’lim muassasalarida umumiy va mutaxassislik fanlarini o‘qitishda muammoli ta’lim texnologiyalari orasida muhim o‘rin egallagan “Keys- stadi” texnologiyasini qo‘llash tajribasi shakllanmoqda.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta’limi amaliyotida ham “Keys-stadi” texnologiyasini qo‘llash asosida muammoli vaziyatlarni yaratish va ularni hal qilishga doir o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish borasida boy amaliy tajriba to‘plangan va mazkur texnologiya jahon o‘qitish tizimida eng ommalashgan o‘quv texnologiyasi sifatida e’tirof etilmoqda.

Pedagogik turkum fanlarini o‘qitishda “Keys-stadi” texnologiyasini

qo‘llash xususida so‘z yuritishdan avval uning tushuncha sifatida o‘zida qanday mohiyatni yoritishi xususida to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

“Keys-stadi” texnologiyasi (ingl. “case” – chemodan, metod, “study” – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) – talabalarda aniq, real yoki sun’iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahtil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya, real vaziyatlarni bayon etishda qo‘llaniladigan o‘qitish texnikasi deya e’tirof etiladi.

Texnologiyaning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

1. Tahlil ko‘nikmalari va tanqidiy tafakkurni rivojlanirish.
2. Nazariya va amaliyot birligini ta’minlash.
3. Muammo yuzasidan turli qarashlar va yondashuvlarni namoyish qilish.
4. Qarorlar qabul qilish va uning oqibatlariga doir mulohazalarini taqdim etish.
5. Noaniqliklar mavjud bo‘lgan sharoitda muqobil variantlarni boshlash ko‘nikmalarini shakllantirish.

Darhaqiqat, keys-stadi talabalarni har qanday mazmunga ega vaziyatni o‘rganish va tahlil qilishga o‘rgatadi. Uning negizida muavyan muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiyligi mohiyatini aks ettiruvchi elementlar yotadi. Bular quyidagilardir: ta’lim shakllari, ta’lim metodlari, ta’lim vositalari, ta’lim jarayonini boshqarish usul va vositalari, muammoni hal qilish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishning usul va vositalari, axborotlarni to‘plash ularmi o‘rganish usul va vositalari, ilmiy tahlilning usul va vositalari, o‘qituvchi va o‘quvchi (talaba) o‘rtasidagi ta’limiy aloquning o‘sish va vositalari, o‘quv natijalarini.

“Keys- stadi” texnologiyasi dastlab 1870 yilda AQShning Garvard universitetining haqiq maktabida ta’lim jarayonida qo‘llanilgan. O‘shti texnologiya Garvard universitetining biznes maktabida 1920 yilda qo‘llanila boshlangan. Keyslarning ilk to‘plami 1925 yilda to‘mox haqidagi Garvard universiteti hisobotlari asosida chop etilgan. Hozirda texnologiya xorijiy mamlakatlarda iqtisodiyot, tajribalarida ham keng qo‘llanilmoqda. O‘zbekistonda mazkur texnologiyani ta’lim jarayoniga tafbiq etish yo‘lidagi harakatlar

mustaqillik yillarda faollashdi.

Zamonaviy o'qitish amalyotida ta'limiylar xarakterdagi keyslarning quyidagi turlari qo'llanilmoqa:

- muammoning yechimi va qarorlarni tahlil qilishga yo'naltirilgan keyslar;
- qaror yoki yaxlit muammoni ifodalovchi keyslar;
- talaba faoliyatini tahlil qilish va baholash imkoniyatini beruvchi keyslar.

Ta'linda qo'llaniladigan "Keys-stadi"ning tayyor variantlari ham mavjud bo'lib, ularni sotib olish mumkin. Biroq, eng samarali yo'l har bir fan bo'yicha keyslarning mustaqil yaratilishiga erishishdir. Birgina Garvard universitetida yiliga 700 ta keys ishlab chiqiladi. Ularning narxi 10 \$. Ammo ba'zi keyslarning narxi 500 ta 1000 \$ gacha. London biznes maktabi va boshqa biznes maktablar o'zlarida 340 nafarga yaqin ishtirokchilarni birlashtirgan holda keyslarni yaratish bilan shug'ullanadi.

Texnologiya talabalarda predmetni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni, amaliy ko'nikmalarni, vaziyatni tahlil qilish va to'g'ri qaror qabul qilishga nisbatan ijodiy yondashish malakalarini rivojlantiradi, turli muammoli vaziyatlar va ularni hal qilish asosida ular tomonidan bilimlarning faol o'zlashtirilishi uchun imkoniyat yaratadi.

"Keys-stadi" yordamida talabalar quyidagi ko'nikina, malakalar<sup>6</sup>ga ega bo'ladi:

**1. Tahliliy ko'nikmalar** (ma'lumotlarni axborotlardan ajrata olish, ularni turkumlashtirish, ma'lumotlarni zarur va nozarurga ajratish, tahlil qilish, taqdim etish; buning uchun shaxs aniq, mantiqiy fikrlay olishi kerak).

**2. Amaliy ko'nikmalar** (muammoning murakkabligidan kelib chiqib, real vaziyatni tahlil qila olish, eng muhim nazariya, metod va tamoyillarni qo'llay bilish).

**3. Ijodiy ko'nikmalar** (bunda mantiqiylik asosida vaziyat (muammo)ni yechish muhim emas, balki ijodiy yondashuv asosida muammoning bir necha yechimlarini topish va ularni tahlil qilish talab etiladi).

**4. Muloqot ko'nikmalarini** (unga ko'ra talaba bahs-munozara olib borish, o'z nuqtai nazarini himoya qilish, qaroriga boshqalarni

ishontirish, juda qisqa va ishonarli hisobotni tayyorlash ko'nikmalarini o'zlashtira bilishi zarur).

**5. Ijtimoiy ko'nikmalar** (qarorni muhokama qilish jarayonida talabalar boshqalarning xatti-harakatini tahlil qilish, boshqalarni tinglay bilish, bahsda o'zgalarning fikrlarini qo'llab-quvvatlash, ilgari surilgan fikrga qarama-qarshi fikri bildira olish va o'zini boshqara olishi lozim).

**6. O'z-o'zini tahlil** (bahs-munozara jarayonida o'zini tuta bilishi, boshqalarga namuna bo'lishi muhim).

Har o'qituvchi keys-stadiiga asoslangan o'quv topshiriqlarining pustu asoslanishiga erisha olishi lozim. Keys topshiriqlarining amaliy-didaktik xarakterga ega bo'lishi uchun ularni ishlab chiqishda quyidagilarga e'tiborni qaratish talab etiladi:

- maqsad aniq ifoda etish (maqsad ikki xil (yoki undan ortiq) tushunilmashigi);
  - savol yoki topshiriqlar ma'lum darajada murakkab bo'lishi;
  - ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayotning bir necha jihatini yorita olishi;
  - tezda o'zining amaliy ahamiyatini yo'qotmasligi;
  - milliy xususiyatlarni o'zida namoyon eta olishi;
  - ta'limning barcha yo'nalish yoki sohalariga oid tipik vaziyatlarini ifodalashi;
  - dolzarb ahamiyatga ega bo'lishi;
  - talabalarda tahliliy tafakkurni rivojlantirishi;
  - bahl-munozarani tashkil etish imkoniyatini yaratishi;
  - bir necha yechim (qaror)ni ilgari surish imkoniyatini tushubay olishi.

O'quv keyslarning muhim xarakterli jihatlari talabalarga muhammeli vaziyatni hal etish yuzasidan talabalar e'tiboriga adabiyotlar o'yinining taqdim etilishi, ularga metodik ko'rsatma, yo'qnomalarning berilishi va albatta, o'qituvchi tomonidan muammoning yechimi bo'yicha o'z variantining taqdim etilishi oshadidi.

Adabiyotlar ro'yxati o'qamiyatotgan masala (muammo, mavzu) ga bo'yonda taalluqli bo'lishi zarur. Keyslarni yechishga doir metodik ko'rsatma, yo'qnomalar taxminan shunday bo'lishi mumkin:

1. Keys (muammo) bilan tanishing.

2. Muammoning dolzarbligini baholang.
3. Muammoning dolzarbligini dalilar yordamida izohlang.
4. Keys (muammo)ni samarali yechish yo'llarini aniqlang.
5. Keys (muammo)ning samarali yechimini belgilovchi metod va texnologiyalarni tanlang.
6. Keys (muammo)ning samarali yechimini kafolatlovchi faraz (ilmiy faraz)larni shaklantiring.

Xorijiy mamlakatlar ta'lini amaliyotida keyslar amaliy va ilmiy tadqiqotlarini tashkil etish maqsadida qo'llanilishi sababli ular odatda murakkab tarkibiy tuzilma hamda o'rtacha (Yevropa), katta (AQSh) hajmga ega bo'ladi. Ko'p holatlarda keyslar birgina mashg'ulot jarayonida hal qilinmay, balki butun bir semestr, hatto o'quv yili davomida yechiladi. Ularning bu boradagi tajribalaridan bitiruv malakaviy ishlari (bakalavriat), magistrlik dissertatsiyalari (magistratura), bitiruv loyiha ishlari (malaka oshirish kurslari)da foydalanish maqsadga muvofiqir. O'quv materialining xarakteridan kelib chiqqan holda oddiy, murakkab tarkibiy tuzilishga ega bo'limgan, ya'ni mini testlardan ham foydalanish amaliy qiymatga egaligi ta'lim amaliyotida o'z tasdig'ini topgan.

Murakkab keys (muammoli vaziyat)lar quyidagi tarkibiy tuzilmaga ega bo'ladi:

1. Pedagogik annotatsiya.
  2. Kirish.
  3. Keys (muammo)ning bayoni.
  4. Keys (muammo)ni yechish yuzasidan topshiriq (yoki savol)lar.
  5. Foydalanish uchun adabiyotlar ro'yxati.
  6. Metodik ko'rsatmalar.
  7. Keysni yechish jarayoni (tahlil va yechim variantlarini ilgari surish, variantlar maqbulligini teksbirish).
  8. Keys yechimi bo'yicha taqdimotni tashkil etish.
  9. Keys yechimini tahlil qilish.
  10. O'qituvchi (keysolog)ning yechimi.
- Mini keyslar uchun quyidagi tarkibiy tuzilmaga egalik xarakterlidir:
1. Keys (muammo)ning bayoni.
  2. Keys (muammo)ni yechish yuzasidan topshiriq (yoki savol)

1. Foydalanish uchun adabiyotlar ro'yxati.
2. Metodik ko'rsatmalar.
3. Keysni yechish jarayoni (tahlil va yechim variantlarini ilgari surish, variantlar maqbulligini tekshirish).
4. Keys yechimi bo'yicha taqdimotni tashkil etish.
5. Keys yechimini tahlil qilish.
6. O'qituvchi (keysolog)ning yechimi.

Anglanganidek, ta'lim jarayonida o'quv keyslarini qo'llashda junyon (mashg'ulot) yakunida albatta o'qituvchi (keyolog)ning yechimi taqdim etilishi zarur. Buning didaktik ahamiyati bu yechim mo'sida talabalarning o'z o'quv-bilish harakatlarining qanchalik to'pluni, samarali, maqsadga muvofiq amalga oshira olganliklarini olib qilish, solishtirish, yo'l qo'ygan xatolarini aniqlash imkoniyatini yaratishi bilan belgilanadi.

Keyslar tipologiyasida o'quv topshirig'ini taqdim etish usuli savolli hamda topshiriqli bo'lishi ko'rsatilgan. Shunga ko'ta talabalarning e'tiborlariga havola etiladigan keyslar yoki savolli, yoki topshiriqli bo'lishi mumkin.

Agar keys **savolli-keys** bo'lsa, u holda muammo yoki muammoli vaziyatni tahlil qilish va yechishga oid **bir necha savollar** keltiriladi. M:

1. Yoshlarning "ommaviy madaniyat" ta'siriga berilishining do'sti omillari nimalardan iborat?

2. Yoshlarning "ommaviy madaniyat"ta'siriga berilishlarida O'AVning o'mni va rolini qanday aniq dalillar asosida baholay olasiz?

Agar keys **topshiriqli-keys** bo'lsa, u holda keysni yechish jarayonida bujarilishi zarur bo'lgan **topshiriqlar** beriladi. M:

1. Yoshlarni "ommaviy madaniyat"ning salbiy ta'siridan himoyalash omillarini aniqlang.

2. Yoshlarda "ommaviy madaniyat"ga qarshi immunitetni omillarda shakllantirish yo'llarini belgilang.

Odatda keyslarni tayyorlashda darslik va o'quv qo'llanilardan, faoliy Ommaviy axborot vositalari, jumladan, Internet materiallaridan ham minqadli foydalanish mumkin.

Pedagogika turkumi fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan keyslarni ularning xarakteriga ko'ta B.Blu'm taksonomiyasini (bilish-tushunish-

